<p><b>O'quv moduli mazmuni:</b></p>	<p>Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari. Sterilizatsiya va avtoklavlash tadbirlariga tinglovchilarni amaliy tomondan o'qitish va o'rgatish. Mashg'ulotlar davomida markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari haqida tushuncha berish, zamonaviy sterilizatsiya apparatlari bilan tanishtirish, texnika xavfsizligi masalalari bo'yicha ma'lumotlar berib borish.</p> <p>Asosiy diqqat va e'tiborni sterilizatsiya ishlarini to'g'ri olib borish, sterilizatsiyaning sifatli bo'lishini ta'minlovchi tadbirlar va uni tekshirish uchun zarur indikatorlardan to'g'ri foydalanish va ishlatish qoidalariga to'la amal qilish.</p>
<p><b>Tavsiya etiladigan adabiyotlar:</b></p> <p>1. K.F. Melibayeva, G.F. Ergasheva. "Aseptika, antiseptika va dezinfeksiya" Uslubiy qo'llanma. Qo'qon. 2025 yil.</p> <p>2. V.N. Turaqulov, F.A. Qurbonov. "Xirurgiyada xamshiralik parvarishi" O'quv qo'llanma. Navoi nashriyot. 2019 yil.</p> <p>3. G.T. Dxritiman, G.T. Isqandarova "Uskunaning hayotiy siklini boshqarish bo'yicha qo'llanma-Bug'li sterilizator (Avtoklav)" Tibbiyot xodimlari uchun uslubiy tavsiyanomalar. Toshkent. 2024 yil.</p> <p>4. G.T. Dxritiman, G.T. Isqandarova "Uskunaning hayotiy siklini boshqarish bo'yicha qo'llanma-Plazmali sterilizator" Tibbiyot xodimlari uchun uslubiy</p>	

tavsiyanomalar.Toshkent 2024 yil.

5.Elektron ta'lim resurslari:

1. Zamonaviy sterilizatsiya usullari

- **Sterilizatsiya usullari. Sterilizatsiya xususiyatlari**  
Muallif: Arzimatova Ra'no Pardaboy qizi ([JournalSS](#))

2. Aseptika va antiseptika asoslari

- **Tibbiyot xodimlarining aseptika va antiseptik sterilizatsiya usullarini qo'llanishi**  
Mualliflar:
  - **Sh.Ya. Radjabov**
  - **G.R. Kadamova**
  - **M.M. Olimova** ([pedagogs.uz](#))

3. Mikrobiologiya va sterilizatsiya

- **Mikrobiologiya va virusologiya**
- Mualliflar: OTM professor-o'qituvchilari (NamDU) ([www.namdu.uz](#))

4. Umumiy tibbiyot va dezinfeksiya

- **Tibbiyotda dezinfeksiya va sterilizatsiya asoslari** ([book.bsmi.uz](#))

5. Sterilizatsiya usullari va qo'llanilishi, Stomatologiyada sterilizatsiya

- **Sterilizatsiya usullari va ularning qo'llanilishi**
- Muallif: **Shoda Team** ([Hujjat24](#))

### 1.5. Modul Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik.

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	10 kredit
<b>Tinglovchida kasbiy kompetensiyaning shakllanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikmalar</b>	<b>Jismoniy faollik va sog'lom turmushda kompetensiyalar</b> Bu sohadagi kompetensiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi: <ul style="list-style-type: none"><li>• Sog'lom turmush qoidalari bo'yicha <b>bilimga ega bo'lish</b></li><li>• Shaxsiy sog'liqni baholay olish va nazorat qilish</li><li>• To'g'ri ovqatlanish rejasini tuzish ko'nikmasi</li><li>• Jismoniy mashqlarni xavfsiz va samarali bajarish</li><li>• Sog'lom hayot tarzini boshqalarga targ'ib qila olish</li></ul>
<b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>• Salomatlik tushunchasi, salomatlik darajasi ko'rsatkichlarini;</li><li>• sog'lom turmush tarzini shakllantirish tamoyillarini;</li><li>• salomatlikka ta'sir etuvchi omillar:</li><li>• irsiy, ekologik tibbiy va hayot tarzi va salomatlik mexanizmlarini bilishi, tahlil qila olishni;</li></ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'sirini;</li> <li>• salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan standart va algoritmlarni;</li> <li>• to'g'ri ovqatlanish prinsiplarini;</li> <li>• kun tartibini to'g'ri tashkil etishni;</li> <li>• jismoniy faollik va chiniqishning</li> <li>• salomatlikka ta'sirini;</li> <li>• zararli odatlarning organizmga ta'sirini;</li> <li>• tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini</li> <li>• jalb etishni;</li> <li>• sog'lom turmush tarzini maqsadli guruhlar o'rtasida shakllantirish va targ'ib etishni;</li> </ul>
<p><b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Aholining turli guruhlarida (yoshiga, mehnat turiga, jinsiga qarab) psixoemotsional holatni aniqlashni;</li> <li>• sog'lom turmush tarzini qo'llab quvvatlashda maqsadli guruhlarini shakllantirish va ular o'rtasida suhbatlar olib borishni;</li> <li>• individual salomatlik va uni asrash yo'llarini;</li> <li>• jismoniy faollik, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, zararli odatlarning salomatlikka ta'siri mavzularida aholi o'rtasida tadbirlar tashkil etishni;</li> <li>• maqsadli guruhlar o'rtasida targ'ibot ishlarini olib borishni;</li> <li>• inson salomatligini saqlash va tiklashda jismoniy tarbiya mashqlari kompleksini;</li> <li>• jismoniy mashqlarni har xil yoshdagi sog'lom odamlarda va bemorlarda qo'llash uslublarini;</li> <li>• Sqandinaviya yurish usullarini.</li> </ul>
<p><b>O'quv moduli mazmuni:</b></p>	<p>Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.</p>
<p><b>Tinglovchilarni mustaqil o'zlashtirishi uchun adabiyotlar ro'yxati:</b></p> <p>1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 noyabrdagi "Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar</p>	

to'g'risida"gi **PQ 4887**-sonli qarori.

2. **VMQ 2025 y. 6-may № 297** “ Sog‘liqni saqlash va ta’lim tashkilotlarida ichimlik suvi hamda sanitariya-gigiyena infratuzilmasini kengaytirishga qaratilgan “ Toza qo‘llar” dasturi.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 dekabrdaagi “Yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab – quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PQ 4063**-sonli qarori.

4. **SSV buyrug‘i № 97, 2024 y,27mart.** “Axoli orasida kasalliklarni erta aniqlash, skrining dasturlarni samarali o‘tkazish,aniqlangan kasalliklar bo‘yicha manzilli sog‘lomlashtirish ishlarini tashkil etish” to‘g‘risida.

5.**SSV ning № 175-buyrug‘i,2025yil,20-iyun.**” Aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”

6.Sh.Zokirxo‘jayev,A.Gadoyev,M.Turimbetova “Dietologiya ” 2023 yil

7.A.Gadayev,L.Musadjanova,N.Pirmatova, N.Mo‘minova “Shifobaxsh taomlar ” 2017 yil.

8.Sh.Qurbonov,A.Qurbonov “To‘g‘ri ovqatlanish qoidalari ”2014 yil

9. **Elektron таълим ресурслар:**

1. inlibrary.uz – sog‘lom turmush maqolalari
2. globalsciences.uz – ilmiy tadqiqotlar
3. avitsenna.uz – ovqatlanish bo‘yicha tavsiyalar
4. yuz.uz – sog‘lom turmush dasturlari
5. hujjat 24.uz – o‘quv materiallar
- 6.

## 2.1. Modul:Sog‘liqni saqlash vazirligining reanimatsiya sohasiga oid meyoriy hujjatlari. Reanimatsiya va intensiv terapiya bo‘limi ish tartibi.

<b>O‘quv moduliga ajratilgan kredit:</b>	<b>12 kredit</b>
<b>O‘quv moduli mazmuni:</b>	Sog‘liqni saqlash vazirligining reanimatsiya sohasiga oid buyruqlari va me‘yoriy hujjatlari. O‘zbekistonda reanimatologiya xizmatining tashkil etilishi va rivojlanishi. Reanimatsiya va intensiv terapiya bo‘limi ishini tashkil qilish. Reanimatsiya va intensiv terapiya bo‘limi hamshirasining funksional vazifalari.Tibbiy etika va deontologiya qoidalariga rioya qilish, tibbiyot sirini saqlash. Reanimatsiya va intensiv terapiya bo‘limidagi me‘yoriy jihozlar, anjomlar va ularni doimo ishchi xolatida saqlashning ahamiyati.Ishlatilgan dori-

	<p>darmonlarni xisobini yuritish. Reanimatsiya va intensiv terapiya o'tayotgan bemorning hayotiy muhim ko'rsatkichlarini monitoringini olib borish. Reanimatsion karta, intensiv terapiya kartasini yuritish. Hamshiralik jarayoni uning bosqichlari, bemorlarda turli tekshiruvlarga tayyorlash. Hamshiralik parvarishini amalga oshirish. Reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limidagi me'yoriy hujjatlar bilan ishlash.</p>
<p><b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Sog'liqni saqlash vazirligining reanimatsiya sohasiga oid buyruqlari va me'yoriy hujjatlarini;</li> <li>• O'zbekistonda reanimatologiya xizmatining tashkil etilishi va rivojlanishini;</li> <li>• reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limi ishini tashkil qilishni;</li> <li>• reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limi hamshirasining funksional vazifalarini;</li> <li>• tibbiy etika va deontologiya qoidalari, tibbiyot sirini saqlashni ahamiyatini;</li> <li>• reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limidagi me'yoriy jihozlar, anjomlar va ularni doimo ishchi xolatida saqlashning ahamiyatini;</li> <li>• ishlatilgan dori-darmonlarni xisobini yuritishning ahamiyatini;</li> <li>• reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limidagi me'yoriy hujjatlarni.</li> </ul>
<p><b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• sog'liqni saqlash vazirligining reanimatsiya sohasiga oid buyruqlari va me'yoriy hujjatlari bilan ishlashi;</li> <li>• reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limi hamshirasining funksional vazifalarini bajarishni;</li> <li>• tibbiy etika va deontologiya qoidalariga rioya qilish, tibbiyot sirini saqlashni;</li> <li>• reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limidagi me'yoriy jihozlar, anjomlar va ularni doimo ishchi xolatida saqlashni;</li> <li>• ishlatilgan dori-darmonlarni xisobini yuritishni;</li> <li>• reanimatsiya va intensiv terapiya o'tayotgan bemorning hayotish muhim ko'rsatkichlarini monitoringini olib borishni;</li> <li>• reanimatsion karta, intensiv terapiya kartasini</li> </ul>

	<p>yuritishni;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• hamshiralik jarayoni uning bosqichlarini amalga oshirishni;</li> <li>• bemorlarda turli tekshiruvlarga tayyorlashni;</li> <li>• hamshiralik parvarishini amalga oshirishni;</li> <li>• reanimatsiya va intensiv terapiya bo‘limidagi me‘yoriy hujjatlarni yuritishni.</li> </ul>
--	--

## 2.2. Modul. O‘tkir nafas yetishmovchiligida hamshiralik yordami va parvarishi.

<b>O‘quv moduliga ajratilgan kredit:</b>	<b>12 kredit</b>
<b>O‘quv moduli mazmuni:</b>	<p>O‘tkir nafas yetishmovchiligining kelib chiqish sabablari, klinikasi, shoshilinch tibbiy yordam tadbirlari va asoratlarida hamshiralik parvarishini tashkil etish. Nafas olish a‘zolariga yot jism tiqilishida o‘tkir nafas yetishmovchiligining klinikasi, shoshilinch tibbiy yordam tadbirlari va parvarish qilish. Traxeya intubatsiyasi, kerakli asbob-anjomlar va bemorni tayyorlash, uni bajarish usullari, asoratlari va bemorni parvarishlash. Traxeostomiya va qonikotomiyani bajarish uchun kerakli asbob-anjomlarni tayyorlash. O‘pkani sun‘iy nafas oldirish usullari, asoratlari va ularni bartaraf etish. Bronxial astma kasalligining kelib chiqish sabablari, klinik bosqichlari. Bronxial astma hurujida shoshilinch hamshiralik yordamini ko‘rsatish. Astmatik status holatida bemorga tez tibbiy yordam ko‘rsatish. O‘tkir nafas yetishmovchiliklarida hamshiralik parvarishi rejasini tuzish va uni amalga oshirish, tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalari.</p>
<b>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• O‘tkir nafas yetishmovchiligining kelib chiqish sabablari, klinikasi, shoshilinch tibbiy yordam tadbirlari va asoratlarida hamshiralik parvarishini tashkil etishni;</li> <li>• Nafas olish a‘zolariga yot jism tiqilishida o‘tkir nafas yetishmovchiligining klinikasi, shoshilinch tibbiy yordam tadbirlari va parvarish qilish tamoyillarini;</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• o'pkani sun'iy nafas oldirish usullari, asoratlari va ularni bartaraf etish tamoyillarini;</li> <li>• bronxial astma kasalligining kelib chiqish sabablari, klinik bosqichlarini;</li> <li>• bronxial astma hurujida shoshilinch hamshiralik yordamini ko'rsatish algoritmini;</li> <li>• astmatik status holatida bemorga tez tibbiy yordam ko'rsatish tamoyillarini;</li> <li>• tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalarini.</li> </ul>
<b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• O'tkir nafas yetishmovchiligida shoshilinch tibbiy yordam tadbirlarini amalga oshirishni;</li> <li>• nafas olish a'zolariga yot jism tiqilishida shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish va bemorni parvarish qilishni;</li> <li>• traxeya intubatsiyasiga kerakli asbob-anjomlar va bemorni tayyorlashni;</li> <li>• traxeostomiya va qonikotomiyani bajarish uchun kerakli asbob-anjomlarni tayyorlashni;</li> <li>• o'pkani sun'iy nafas oldirish usullari, asoratlari va ularni bartaraf etishni;</li> <li>• bronxial astma hurujida shoshilinch hamshiralik yordamini ko'rsatishni;</li> <li>• astmatik status holatida bemorga tez tibbiy yordam ko'rsatishni;</li> <li>• o'tkir nafas yetishmovchiliklarida hamshiralik parvarishi rejasini tuzish va uni amalga oshirishni;</li> <li>• tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirishni.</li> </ul>

### 2.3. Modul: O'tkir yurak-qon tomir yetishmovchiligida hamshiralik yordami va parvarishi.

<b>O'quv moduliga ajratilgan kredit:</b>	<b>12 kredit</b>
<b>O'quv moduli mazmuni:</b>	O'tkir yurak-qon tomir yetishmovchiliklari, sabablari, turlari. O'tkir yurak-qon tomir yetishmovchiligini klinik kechishi, qiyosiy tashxisi, intensiv davolashning asosiy usullari. O'tkir qon tomirlar yetishmovchiligi, turlari, sabablari, belgilari, shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tadbirlari va hamshiralik parvarishi. O'tkir yurak yetishmovchiliklari, sabablari, turlari. Yurakning

	<p>ishemik kasalliklari- stenokardiya, miokard infarqti, kardioskleroz. Stenokardiya, sabablari, klinikasi, stenokardiya hurujida yordam ko'rsatish. O'tkir miokard infarqtining kelib chiqish sabablari, turlari, klinikasi, shoshilinch tibbiy yordam tadbirlari va asoratlarida hamshiralik parvarishini tashkil etish. Gipertonik kriz sabablari, turlari, klinik kechishi, birinchi yordam ko'rsatish va bemorlar holatini baholash. O'tkir septik endokardit, yarim septik endokardit, yurak nuqsonlari, miokardit, yuzaga keltiruvchi sabablari, kasallik belgilari, shoshilinch tibbiy yordam tadbirlari va hamshira parvarishi. Kasalliklarning asoratlarini oldini olish. O'tkir yurak-qon tomir yetishmovchiligida intensiv davolash tadbirlarilarini olib borish.</p>
<p><b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• O'tkir yurak-qon tomir yetishmovchiliklari, sabablari, turlarini;</li> <li>• o'tkir yurak-qon tomir yetishmovchiligini klinik kechishi, qiyosiy tashxisi, intensiv davolashning asosiy usullarini;</li> <li>• o'tkir qon tomirlar yetishmovchiligi, turlari, sabablari, belgilari, shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tadbirlarini;</li> <li>• o'tkir yurak yetishmovchiliklari, sabablari, turlarini;</li> <li>• yurakning ishemik kasalliklarini;</li> <li>• stenokardiya, sabablari, klinikasini;</li> <li>• o'tkir miokard infarqtining kelib chiqish sabablari, turlari, klinikasi, shoshilinch tibbiy yordam tadbirlarini;</li> <li>• gipertonik kriz sabablari, turlari, klinik kechishini;</li> <li>• o'tkir septik endokardit, yarim septik endokardit, yurak nuqsonlari, miokardit, yuzaga keltiruvchi sabablari, kasallik belgilarini;</li> <li>• kasalliklarning asoratlarini oldini olishni;</li> <li>• o'tkir yurak-qon tomir yetishmovchiligida intensiv davolash tadbirlarilarini.</li> </ul>
<p><b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• O'tkir yurak-qon tomir yetishmovchiligini iyosiy tashxisi, intensiv davolashning asosiy usullarini;</li> <li>• O'tkir qon tomirlar yetishmovchiliklariida shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishni va</li> </ul>

	<p>hamshiralik parvarishini;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• stenokardiya, hurujida yordam ko'rsatishni;</li> <li>• o'tkir miokard infarqtda shoshilinch tibbiy yordam tadbirlarini o'tkazish va asoratlarida hamshiralik parvarishini ko'rsatishni;</li> <li>• gipertonik krizida birinchi yordam ko'rsatish va bemorlar holatini baholashni;</li> <li>• o'tkir septik endokardit, yarim septik endokardit, yurak nuqsonlari, miokarditlarda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish va hamshira parvarishini;</li> <li>• kasalliklarning asoratlarini oldini olishni;</li> <li>• o'tkir yurak-qon tomir yetishmovchiligida intensiv davolash tadbirlarilarini olib borishni.</li> </ul>
--	---

**2.4. Modul. Koma va shok klassifikatsiyasi. Bemorlarni parvarish qilish va ko'zatisning o'ziga xos xususiyatlari.**

<b>O'quv moduliga ajratilgan kredit:</b>	<b>12 kredit</b>
<b>O'quv moduli mazmuni:</b>	<p>Koma turlari, sabablari, klinikasi. Komadagi bemorlarni parvarish qilish va ko'zatisning o'ziga xos xususiyatlari. Koma holatidagi bemorlarni fizikal tekshirish va zamonaviy tekshirish usullari. Komaga tushgan bemorlarning holatini baholash Hayotiy muhim ko'rsatkichlarni nazorat qilish va monitoringini olib borish. Kechiktirib bo'lmaydigan yordam ko'rsatish. Koma holatidagi bemorlarni parvarish qilish. Fiziologik ehtiyojlarni qondirishda yordam berish (ovqatlanirish, hojat chiqarish, shaxsiy gigiena). Bemor oila a'zolariga ruhiy yordam berish. Shok va uning turlari. Shok holatigaga tushgan bemorlarni parvarish qilish va ko'zatisning o'ziga xos xususiyatlari. Shok holatidagi bemorlarning holatini baholash. Shok omillarini bartaraf qilish. Hayot uchun muhim ko'rsatkichlarni nazorat qilish. Fiziologik ehtiyojlarni qondirishda yordam berish (ovqatlanish, hojat chiqarish, shaxsiy gigiena). Bemor oila azolariga ruhiy yordam berish, bemorlarga tez tibbiy yordam ko'rsatish va parvarishlash. Shok holatidagi bemorlarni fizikal tekshirish. Shokda bemorlarda hamshiralik parvarishi. Shok holatidagi bemorlarga kasalliklar asoratlarini oldini olish. Miyada qon</p>

	<p>aylanishini o'tkir buzilishi, kelib chiqish sabablari, asoratlarni oldini olish, bemorlarni parvarishlash.</p>
<p><b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Koma turlari, sabablari, klinikasini;</li> <li>• komadagi bemorlarni parvarish qilish va ko'zatishtning o'ziga xos xususiyatlarini;</li> <li>• koma holatidagi bemorlarni fizikal tekshirish va zamonaviy tekshirish usullarini;</li> <li>• koma holatidagi bemorlarni parvarish qilish xususiyatlarini;</li> <li>• fiziologik ehtiyojlarni qondirishda yordam berish qoidalarini;</li> <li>• bemor oila a'zolariga ruhiy yordam berishning ahamiyatini;</li> <li>• shok va uning turlarini;</li> <li>• shok holatigaga tushgan bemorlarni parvarish qilish va ko'zatishtning o'ziga xos xususiyatlarini;</li> <li>• shok holatidagi bemorlarning holatini baholash ko'rsatkichlarini;</li> <li>• shok omillarini bartaraf qilish yo'llarini;</li> <li>• fiziologik ehtiyojlarni qondirishda yordam berish (ovqatlanish, hojat chiqarish, shaxsiy gigiena) qoidalarini;</li> <li>• bemor oila azolariga ruhiy yordam berishning ahamiyatini;</li> <li>• shok holatidagi bemorlarni fizikal tekshirish usullarini;</li> <li>• shokda bemorlarda hamshiralik parvarishi xususiyatlarini;</li> <li>• shok holatidagi bemorlarga kasalliklar asoratlarini oldini olish usullarini;</li> <li>• miyada qon aylanishini o'tkir buzilishi, kelib chiqish sabablari, asoratlarni oldini olish, bemorlarni parvarishlash xususiyatlarini.</li> </ul>
<p><b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Komadagi bemorlarni parvarish qilish va ko'zatishtni;</li> <li>• koma holatidagi bemorlarni fizikal tekshirishni;</li> <li>• bemorlarni zamonaviy tekshirish usullariga tayyorlashni;</li> <li>• komaga tushgan bemorlarning holatini baholashni;</li> <li>• hayotiy muhim ko'rsatkichlarni nazorat qilish va monitoringini olib borishni;</li> <li>• kechiktirib bo'lmaydigan yordam ko'rsatishni;</li> <li>• koma holatidagi bemorlarni parvarish qilishni;</li> <li>• fiziologik ehtiyojlarni (ovqatlanirish, hojat chiqarish, shaxsiy gigiena) qondirishda yordam berishni;</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• bemor oila a'zolariga ruhiy yordam berishni;</li> <li>• shok holatigaga tushgan bemorlarni parvarish qilishni;</li> <li>• shok holatidagi bemorlarning holatini baholashni;</li> <li>• shok omillarini bartaraf qilishni;</li> <li>• hayot uchun muhim ko'rsatkichlarni nazorat qilishni;</li> <li>• shokda bemorlarda hamshiralik parvarishini o'tkazishni;</li> <li>• shok holatidagi bemorlarga kasalliklar asoratlarini oldini olishni;</li> <li>• miyada qon aylanishini o'tkir buzilishida asoratlarni oldini olish, bemorlarni parvarishlashni.</li> </ul>
--	--

**2.5.Modul. Ovqat hazm qilish tizimi a'zolari, jigar kasalliklarining og'ir kritik holatlarida hamshiralik yordami va parvarishi.**

<b>O'quv moduliga ajratilgan kredit:</b>	<b>12 kredit</b>
<b>O'quv moduli mazmuni:</b>	<p>Ovqat hazm qilish, jigar kasalliklarini zamonaviy tekshirish va davolash usullari. Ovqat hazm qilish, jigar a'zolari kasalliklarini oldini olish, bemorlar orasida uning asoratlari rivojlanishini kamaytirish chora-tadbirlari. Ovqat hazm qilish a'zolari va jigarni o'tkir rivojlanayotgan kasalliklari bilan kasallangan bemorlarda kritik holatlar va patologik sindromlarda hamshiralik parvarishi va reanimatsion chora tadbirlar. O'tkir va surunkali gastritlar. Kasalliklarni zamonaviy tekshirish, davolash usullari, bemorlarni parvarishlash, kasallikni xuruji va asoratlarini oldini olish, parhez taomlar bilan davolash bo'yicha tavsiyalar berish. Yara kasalliklari, kelib chiqish sabablari, rivojlanishi, belgilari, asoratlari va ularda tez tibbiy yordam berish. Bemorlarni rentgenologik va endoskopik tekshiruvga tayyorlash. Kasallik asoratlarini oldini olish, asoratlar yuz berganda tez tibbiy yordam ko'rsatish. parhezning ahamiyatini tushuntirish. Ichak kasalliklari. Gijjalar, ularning turlari, yuqish yo'llari, kasallikni belgilarini aniqlash va zamonaviy davolash, kasallikni keng tarqalishini oldini olish. O'tkir va surunkali enteritlar va kolitlar. Ularning kelib chiqishi, rivojlanishi, belgilari, hamshira parvarishini tashkil qilish. O'tkir jigar yetishmovchiligi, jigar sirrozi va gepatitlarda hamshiralik yordami va parvarishi. O'tkir va surunkali jigar kasalliklari. O'tkir</p>

	<p>gepatit, uning kelib chiqishi belgilari, parvarishlash va oldini olish. Surunkali gepatit va jigar sirrozi. Uning kelib chiqishi, rivojlanishi va belgilari, hamshira tashxisi zamonaviy davolash usullariga tayyorlash, parvarishlash usullari. O't qopi, o't yo'llari va me'da osti bezi kasalliklari. O'tkir va surunkali xoletsistitlar hamda pankreatitlar. Ularning kelib chiqishi, rivojlanishi va belgilari va ovqatlantirish. Bemorni turli tekshirish usullariga tayyorlash. Xoletsistektomiyadan so'ng bemorning holati va parvarishlash. Kasalliklarni zamonaviy tekshirish va davolash usullari. Ovqat hazm qilish a'zolari, jigar kasalliklarini parvarishlashda hamshira yuritadigan hujjatlar.</p>
<p><b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ovqat hazm qilish, jigar kasalliklarini zamonaviy tekshirish va davolash usullarini;</li> <li>• ovqat hazm qilish, jigar a'zolari kasalliklarini oldini olish, bemorlar orasida uning asoratlari rivojlanishini kamaytirish chora-tadbirlarini;</li> <li>• ovqat hazm qilish a'zolari va jigarni o'tkir rivojlanayotgan kasalliklari bilan kasallangan bemorlarda kritik holatlar va patologik sindromlarda hamshiralik parvarishi va reanimatsion chora tadbirlarini;</li> <li>• o'tkir va surunkali gastritlarni zamonaviy tekshirish, davolash usullarini;</li> <li>• bemorlarni parvarishlash, kasallikni xuruji va asoratlarini oldini olishni;</li> <li>• parhez taomlar bilan davolashning ahamiyatini;</li> <li>• yara kasalliklari, kelib chiqish sabablari, rivojlanishi, belgilari, asoratlarini;</li> <li>• bemorlarni rentgenologik va endoskopik tekshiruvga tayyorlash xususiyatlarini;</li> <li>• kasallik asoratlarini oldini olishni;</li> <li>• ichak kasalliklari, gijjalar, ularning turlari, yuqish yo'llari, kasallikni belgilarini aniqlashni;</li> <li>• o'tkir va surunkali enteritlar va kolitlar, ularning kelib chiqishi, rivojlanishi, belgilari, hamshira parvarishini tashkil qilishni;</li> <li>• o'tkir jigar yetishmovchiligi, jigar sirrozi va gepatitlarda hamshiralik yordami va parvarishini;</li> <li>• o'tkir va surunkali jigar kasalliklari, belgilari, parvarishlash va oldini olishni;</li> <li>• surunkali gepatit va jigar sirrozi, belgilari, hamshira</li> </ul>

	<p>tashxisini;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• o‘t qopi, o‘t yo‘llari va me‘da osti bezi kasalliklarini;</li> <li>• ovqat hazm qilish a‘zolari, jigar kasalliklarini parvarishlashda hamshira yuritadigan hujjatlarni.</li> </ul>
<p><b>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Ovqat hazm qilish, jigar kasalliklarini zamonaviy tekshirish va davolash usullariga bemorlarni tayyorlashni;</li> <li>• ovqat hazm qilish a‘zolari va jigarni o‘tkir rivojlanayotgan kasalliklari bilan kasallangan bemorlarda kritik holatlar va patologik sindromlarda hamshiralik parvarishi va reanimatsion chora tadbirlarni amalga oshirishni;</li> <li>• o‘tkir va surunkali gastritlarda bemorlarni zamonaviy tekshirish usullariga tayyorlashni;</li> <li>• bemorlarni parvarishlash, kasallikni xuruji va asoratlarini oldini olish, parhez taomlar bilan davolash bo‘yicha tavsiyalar berishni;</li> <li>• yara kasalliklari va asoratlarida tez tibbiy yordam berishni;</li> <li>• bemorlarni rentgenologik va endoskopik tekshiruvga tayyorlashni;</li> <li>• o‘tkir va surunkali enteritlar va kolitlarda hamshira parvarishini tashkil qilishni;</li> <li>• o‘tkir jigar yetishmovchiligi, jigar sirrozi va gepatitlarda hamshiralik yordami va parvarishini;</li> <li>• o‘tkir va surunkali jigar kasalliklarida bemorlarni zamonaviy davolash usullariga tayyorlash, parvarishlash usullarini;</li> <li>• o‘t qopi, o‘t yo‘llari va me‘da osti bezi kasalliklarida bemorni turli tekshirish usullariga tayyorlashni;</li> <li>• xoletsistektomiyadan so‘ng bemorni parvarishlashni;</li> <li>• kasalliklarni zamonaviy tekshirish va davolash usullarini;</li> <li>• ovqat hazm qilish a‘zolari, jigar kasalliklarini parvarishlashda hamshira yuritadigan hujjatlarni rasmiylashtirishni.</li> </ul>

**2.6. Modul. Siydik ajratish a‘zolari og‘ir kritik holatlarida hamshiralik yordami va parvarishi.**

<b>O'quv moduliga ajratilgan kredit:</b>	<p style="text-align: center;"><b>6 kredit</b></p>
<b>O'quv moduli mazmuni:</b>	<p>Siydik ajratish a'zolari kasalliklarini zamonaviy tekshirish va davolash usullari. Siydik ajratish a'zolari kasalliklarini oldini olish, bemorlar orasida uning asoratlari rivojlanishini kamaytirish tadbirlarni qo'llash. Siydik ajratish a'zolari o'tkir rivojlanayotgan kasalliklari bilan kasallangan bemorlarda kritik holatlar va patologik sindromlarda hamshiralik parvarishi va reanimatsion chora tadbirlar. Kasalliklarni zamonaviy tekshirish va davolash usullari. O'tkir va surunkali glomerulonefritlar, ularning kelib chiqish sabablari, rivojlanishi va belgilari, bemorlarni davolash, parvarishlash. O'tkir va surunkali glomerulonefritlar bilan og'rigan bemorlarni kun tartibi, parhez taomlari, suv-tuzlarni qabul qilish me'yorlari. O'tkir va surunkali pielonefritlarni kelib chiqishi, belgilari, hamshira tashxisi, parvarishlash, bemorni kun tartibi, parhez taomlari. Buyrak toshi kasalligi, sabablari, uning rivojlanishi, belgilari. Buyrak sanchiq xuruji, klinikasi, kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam ko'rsatish, bemorni parvarish qilish. Toshlar paydo bo'lishini oldini olish uchun bemorga parhez bo'yicha tavsiyalar berishning ahamiyati. Sun'iy buyrak yoki a'zolari ko'chirib o'tkazish, buyrak yetishmovchiligini davolashda hamshiraning o'rni. Siydik ajratish a'zolari og'ir kritik holatlarida hamshiralik yordami va parvarishi. Siydik ajratish a'zolari kasalliklarini parvarishlashda hamshira yuritadigan hujjatlar.</p>
<b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Siydik ajratish a'zolari kasalliklarini zamonaviy tekshirish va davolash usullarini;</li> <li>• siydik ajratish a'zolari kasalliklarini oldini olish, bemorlar orasida uning asoratlari rivojlanishini kamaytirish tadbirlarni;</li> <li>• kasalliklarni zamonaviy tekshirish va davolash usullarini;</li> <li>• o'tkir va surunkali glomerulonefritlar, ularning kelib chiqish sabablari, rivojlanishi va belgilarini;</li> <li>• o'tkir va surunkali glomerulonefritlar bilan og'rigan bemorlarni kun tartibi, parhez taomlari, suv-tuzlarni qabul qilish me'yorlarini;</li> <li>• o'tkir va surunkali pielonefritlarni kelib chiqishi,</li> </ul>

	<p>belgilari, bemorni kun tartibi, parhez taomlarini;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• buyrak toshi kasalligi, sabablari, uning rivojlanishi, belgilarini;</li> <li>• toshlar paydo bo'lishini oldini olish uchun bemorga parhez bo'yicha tavsiyalar berishning ahamiyatini;</li> <li>• sun'iy buyrak yoki a'zolari ko'chirib o'tkazish, buyrak yetishmovchiligini davolashda hamshiraning o'rnini;</li> <li>• siydik ajratish a'zolari kasalliklarini parvarishlashda hamshira yuritadigan hujjatlarni.</li> </ul>
<p><b>O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• siydik ajratish a'zolari kasalliklarini zamonaviy tekshirish usullariga bemorlarni tayyorlashni;</li> <li>• siydik ajratish a'zolari o'tkir rivojlanayotgan kasalliklari bilan kasallangan bemorlarda kritik holatlar va patologik sindromlarda hamshiralik parvarishi va reanimatsion chora tadbirlarni o'tkazishni;</li> <li>• buyrak sanchiq xurujida kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordam ko'rsatishni;</li> <li>• bemorni parvarish qilishni;</li> <li>• siydik ajratish a'zolari og'ir kritik holatlarida hamshiralik yordami va parvarishini o'tkazishni;</li> <li>• siydik ajratish a'zolari kasalliklarini parvarishlashda hamshira yuritadigan hujjatlarni rasmiylashtirishni.</li> </ul>

## 2.7. Modul. Terminal holatlarda hamshiralik yordamini ko'rsatish.

### Terminal davridagi bemorlarni parvarish qilish.

<p><b>O'quv moduliga ajratilgan kredit:</b></p>	<p><b>12 kredit</b></p>
<p><b>O'quv moduli mazmuni:</b></p>	<p>Terminal holat haqida tushuncha. Terminal davrning turli xil kasalliklardagi davomiyligi. Terminal davrda bemorlarni fizikal tekshirish, kasallik belgilarini yengillashtirish, organizm hayotiy muhim ko'rsatkichlari monitoringi. Terminal davrdagi bemorlarga hamshiraning parvarishi. Terminal holatdagi bemorga ko'rsatiladigan ruhiy, ijtimoiy, ma'naviy parvarish. Agonal oldi, agonal faza, klinik o'lim haqida tushuncha. O'lim qonsepsiyasi, o'nga munosabat. Klinik o'lim belgilari. Yurak to'xtashi turlari va sabablari. Yurak- o'pka reanimatsiyasining umumiy va ixtisoslashtirilgan usullari. Nafas yo'llari</p>

	<p>o‘tkazuvchanligini ta’minlash. Geymlex usuli. Sun’iy nafas berish (“og‘izdan-og‘izga”, “Ambu” qopchasi bilan), bilvosita yurak massajini qilish. Yurak faoliyati tiklangandan so‘ng qilinadigan parvarishlar rejasini tuzish. Bemor parvarishida hamshiralik ishining ahamiyati. Bemor bilan kommunikatsiya qoidalari. Og‘riqqa baho berish, bemorni umumiy ahvoliga baho berish, hayotiy muhim ko‘rsatkichlarni aniqlash va monitoringini olib borish. Terminal davrdagi bemorlarga yetarli darajada malakali parvarishni amalga oshirishning ahamiyati. Bemorlarga palliativ yordam ko‘rsatish. Bemor va uning yaqinlari bilan muloqotda bo‘lganda etika va deontologiya masalalari.</p>
<p><b>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Terminal holat haqida tushunchani;</li> <li>• terminal davrning turli xil kasalliklardagi davomiyligini;</li> <li>• agonal oldi, agonal faza, klinik o‘lim haqida tushunchani;</li> <li>• o‘lim qonsepsiyasi, o‘nga munosabatni;</li> <li>• klinik o‘lim belgilarini;</li> <li>• yurak to‘xtashi turlari va sabablarini;</li> <li>• yurak- o‘pka reanimatsiyasining umumiy va ixtisoslashtirilgan usullarini;</li> <li>• nafas yo‘llari o‘tkazuvchanligini ta’minlash usullarini;</li> <li>• bemor parvarishida hamshiralik ishining ahamiyatini;</li> <li>• bemor bilan kommunikatsiya qoidalarini;</li> <li>• terminal davrdagi bemorlarga yetarli darajada malakali parvarishni amalga oshirishning ahamiyatini;</li> <li>• bemorlarga palliativ yordam ko‘rsatishning ahamiyatini;</li> <li>• bemor va uning yaqinlari bilan muloqotda bo‘lganda etika va deontologiya masalalarini.</li> </ul>
<p><b>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Terminal davrda bemorlarni fizikal tekshirishni;</li> <li>• kasallik belgilarini yengillashtirishni;</li> <li>• organizm hayotiy muhim ko‘rsatkichlari monitoringini olib borishni;</li> <li>• terminal davrdagi bemorlar hamshiralik parvarishini;</li> <li>• terminal holatdagi bemorga ko‘rsatiladigan ruhiy, ijtimoiy, ma’naviy parvarishni;</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• klinik o‘lim belgilarini aniqlashni;</li> <li>• yurak- o‘pka reanimatsiyasining umumiy va ixtisoslashtirilgan usullarini o‘tkazishni;</li> <li>• nafas yo‘llari o‘tkazuvchanligini ta’minlashni;</li> <li>• Geymlex usulini;</li> <li>• sun’iy nafas berish (“og‘izdan-og‘izga”, “Ambu” qopchasi bilan), bilvosita yurak massajini qilishni;</li> <li>• yurak faoliyati tiklangandan so‘ng qilinadigan parvarishlar rejasini tuzishni;</li> <li>• og‘riqqa baho berish, bemorni umumiy ahvoliga baho berish, hayotiy muhim ko‘rsatkichlarni aniqlash va monitoringini olib borishni.</li> </ul>
--	--

**2.8. Modul: Bolalarda intensiv terapiya va reanimatsion yordam ko‘rsatish xususiyatlari. Bolalarda operatsiyadan keyingi og‘riqsizlantirish.Hamshiralik parvarishini olib borish.**

<b>O‘quv moduliga ajratilgan kredit:</b>	<b>20 kredit</b>
<b>O‘quv moduli mazmuni:</b>	<p>O‘zbekiston Respublikasi SSV tomonidan chikarilgan mutaxassislikka oid buyruqlari va ular asosida ishlash. Bolalarga reanimatsion yordam ko‘rsatish.Bolalar organizmining o‘ziga xos xususiyatlari.Bolalarda reanimatsiyaning umumiy qoidalari, uning o‘ziga xos tomonlari,apparat va moslamalarni ishga tayyorlash va ishlatish. Bolalar reanimatsiyasi va intensiv terapiya bo‘limi hamshirasining lavozimlik burchlari. Reanimatsiya bo‘limidagi chaqaloqlarga hamshiralik parvarishini o‘ziga xos xususiyatlari. Reanimatsiya bo‘limi chaqaloqlarga birinchi hamshiralik yordami va parvarishini tashkil etish.Bolalarda o‘pka – yurak reanimatsiyasini o‘tqazish. Reanimatsiya va intensiv terapiya chora - tadbirlaridan keyingi davrda uchraydigan asoratlar va ularning oldini olishda hamshira taktikasi. Bir yoshgacha va bir yoshdan katta bolalarda nafas yo‘llarini o‘tkazuvchanligi, nafas faoliyati buzilganda shoshilinch yordam ko‘rsatish tamoyillari, obstuktiv sindrom, astma, soxta krupda tez tibbiy yordam ko‘rsatish.Chaqaloqlardagi havfli belgilar, perinatal asfiksiyasi bor chaqaloqlarni olib borish. Oksigenoterapiya, suyuqlik muvozanatini saqlab turish. Bolalarda yurak-qon tomir yetishmovchiligida intensiv terapiya va reanimatsion yordam ko‘rsatish</p>

	<p>xususiyatlari. Bolalarda o‘tkir yurak va qon tomir yetishmovchiligida reanimatsiya o‘tkazish. Yurak nuqsonlarida hamshira parvarishi. Bolalarda o‘tkir yurak va qon tomir yetishmovchiligida reanimatsiya o‘tkazish. Hamshira tashxisi va taktikasi. Bolalarda siydik ajratish va ovqat hazm qilish a‘zolari og‘ir kritik holatlarida intensiv terapiya va reanimatsion yordam ko‘rsatish xususiyatlari. Bolalarda jigar hamda buyrak yetishmovchiligida reanimatsiyasi va intensiv terapiya chora tadbirlari va hamshira taktikasi. Bolalarda operatsiyadan keyingi og‘riqsizlantirish.</p>
<p><b>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• O‘zbekiston Respublikasi SSV tomonidan chikarilgan mutaxassislikka oid buyruqlarini;</li> <li>• bolalarga reanimatsion yordam ko‘rsatish xususiyatlarini;</li> <li>• bolalar organizmining o‘ziga xos xususiyatlarini;</li> <li>• bolalarda reanimatsiyaning umumiy qoidalari, uning o‘ziga xos tomonlari, apparat va moslamalarni ishga tayyorlash va ishlatish qoidalarini;</li> <li>• bolalar reanimatsiyasi va intensiv terapiya bo‘limi hamshirasining lavozimlik burchlarini;</li> <li>• Reanimatsiya bo‘limidagi chaqaloqlarga hamshiralik parvarishini o‘ziga xos xususiyatlarini;</li> <li>• reanimatsiya bo‘limi chaqaloqlarga birinchi hamshiralik yordami va parvarishini tashkil etish xususiyatlarini;</li> <li>• reanimatsiya va intensiv terapiya chora - tadbirlaridan keyingi davrda uchraydigan asoratlar va ularning oldini olishda hamshira taktikasini;</li> <li>• bir yoshgacha va bir yoshdan katta bolalarda nafas yo‘llarini o‘tkazuvchanligi, nafas faoliyati buzilganda shoshilinch yordam ko‘rsatish tamoyillarini;</li> <li>• chaqaloqlardagi havfli belgilarni;</li> <li>• oksigenoterapiya, suyuqlik muvozanatini saqlab turish qoidalarini;</li> <li>• bolalarda yurak-qon tomir yetishmovchiligida intensiv terapiya va reanimatsion yordam ko‘rsatish xususiyatlarini;</li> <li>• yurak nuqsonlarida hamshira parvarishini;</li> <li>• bolalarda siydik ajratish va ovqat hazm qilish a‘zolari og‘ir kritik holatlarida intensiv terapiya va reanimatsion yordam ko‘rsatish xususiyatlarini;</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• bolalarda jigar hamda buyrak yetishmovchiligida reanimatsiyasi va intensiv terapiya chora tadbirlari va hamshira taktikasini;</li> <li>• bolalarda operatsiyadan keyingi og‘riqsizlantirish usullarini.</li> </ul>
<p><b>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• O‘zbekiston Respublikasi SSV tomonidan chikarilgan mutaxassislikka oid buyruqlari va ular asosida ishlashni;</li> <li>• bolalarga reanimatsion yordam ko‘rsatishni;</li> <li>• bolalar reanimatsiyasi apparat va moslamalarini ishga tayyorlash va ishlatishni;</li> <li>• reanimatsiya bo‘limidagi chaqaloqlarga hamshiralik parvarishini ko‘rsatishshni;</li> <li>• reanimatsiya bo‘limi chaqaloqlarga birinchi hamshiralik yordamini ko‘rsatish;</li> <li>• bolalarda o‘pka – yurak reanimatsiyasini o‘tkazishni;</li> <li>• bir yoshgacha va bir yoshdan katta bolalarda nafas yo‘llarini o‘tkazuvchanligi, nafas faoliyati buzilganda shoshilinch yordam ko‘rsatishni;</li> <li>• obstuktiv sindrom, astma, soxta krupda tez tibbiy yordam ko‘rsatishni;</li> <li>• bolalarda yurak-qon tomir yetishmovchiligida intensiv terapiya va reanimatsion yordam ko‘rsatishni;</li> <li>• bolalarda o‘tkir yurak va qon tomir yetishmovchiligida reanimatsiya o‘tkazishni;</li> <li>• yurak nuqsonlarida hamshira parvarishini;</li> <li>• bolalarda o‘tkir yurak va qon tomir yetishmovchiligida reanimatsiya o‘tkazishni;</li> <li>• bolalarda siydik ajratish va ovqat hazm qilish a‘zolari og‘ir kritik holatlarida intensiv terapiya va reanimatsion yordam ko‘rsatishni;</li> <li>• bolalarda jigar hamda buyrak yetishmovchiligida reanimatsiyasi va intensiv terapiya chora tadbirlarini o‘tkazishni;</li> <li>• bolalarda operatsiyadan keyingi og‘riqsizlantirishni.</li> </ul>

**2.9.Modul. Favqulodda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko‘rsatish.**




<b>O‘quv moduliga</b>	<b>6 kredit</b>
-----------------------	-----------------




<b>ajratilgan kredit:</b>	
<b>O‘quv moduli mazmuni:</b>	Favqulotda vaziyatlar, halokatlar haqida asosiy tushunchalar. Favqulotda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Tibbiy evakuatsiya bosqichlari. Favqulotda vaziyatlarda o‘rta tibbiyot xodimining vazifalari. Jabrlanuvchilarni saralash tartibi. Tibbiy saralash (trijaj usuli) va evakuatsiya qilish. Jabrlanuvchini ahvolini baholash, asosiy hayotiy ko‘rsatkichlarni aniqlash. Bemor uchun zarur vaziyatni yaratish. Ommaviy talofat o‘chog‘ida birinchi yordam ko‘rsatish. O‘tkir yurak qon – tomir yetishmovchiligida yurak- o‘pka reanimatsiyasini “SAV” ketma-ketligida o‘tkazish algoritmi.
<b>O‘quv moduli yakunida tinglovi bilishi lozim:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Favqulodda vaziyatlar va halokatlarning asosiy turlarini;</li> <li>• favqulodda vaziyatlar tasnifi, kelib chiqish sabablari, manbalarini;</li> <li>• tibbiy evakuatsiya bosqichlarini;</li> <li>• jarohatlanganlarni tibbiy saralash tartibini;</li> <li>• favqulotda vaziyatlarda o‘rta tibbiyot xodimining vazifalarini;</li> <li>• evakuatsiya bosqichlarida tibbiy yordam turlarini;</li> <li>• ommaviy talofat o‘chog‘ida birinchi yordam ko‘rsatishni;</li> <li>• o‘tkir yurak qon – tomir yetishmovchiligida yurak- o‘pka reanimatsiyasini.</li> </ul>
<b>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Favqulotda vaziyatlarda shikastlanish turiga qarab jabrlanganlarni tibbiy saralashni;</li> <li>• texnogen, tabiiy, ekologik tushdagi favqulotda vaziyatlarda birinchi yordam ko‘rsatishni;</li> <li>• jabrlanganlarni evakuatsiya qilishni;</li> <li>• transport avariylarida yordam ko‘rsatishni;</li> <li>• jarohatlarda ,suyak sinishida va Krash sindromida birinchi yordam ko‘rsatishni;</li> <li>• o‘tkir qon ketishlarda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishni;</li> <li>• elektr toki bilan shikastlanishda birinchi yordam ko‘rsatishni;</li> <li>• o‘tkir zaharlanishlarda birinchi yordam ko‘rsatishni;</li> <li>• sovuq urishi va issiqlik urishida birinchi yordam ko‘rsatishni;</li> <li>• cho‘kishda birinchi yordam ko‘rsatishni;</li> <li>• bo‘g‘ilishda birinchi yordam ko‘rsatishni;</li> </ul>


	<ul style="list-style-type: none"> <li>• hasharotlar chaqishi va hayvonlar tishlaganda tez tibbiy yordam ko‘rsatishni;</li> <li>• o‘tkir yurak qon – tomir yetishmovchiligida yurak-o‘pka reanimatsiyasini asosiy tadbirlarning “SAV” ketma-ketligini bajarishni.</li> </ul>
<b>Adabiyotlar:</b>	<p>1.D.Turaqulov,L.X.Musajonova.”Shoshilinch tez tibbiy yordam ko‘rsatishda xamshiralik ishi”O‘quv qo‘llanma.A.Navoi nashriyot.2019 yil.</p> <p>2. Y.Allayorov Y.Tojiboev “Favqulotda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari.”2017 y.Toshkent.</p> <p>3.Elektron ta’lim resurslari:</p> <p><b>1. Free online First Aid, CPR &amp; AED kurslari</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• FirstAidForFree.com — asosiy birinchi yordam, CPR (CPR), AED (avtomatik tashqi defibrillyator) va boshqa ko‘plab mavzularni o‘z ichiga olgan bepul onlayn kurslar. 2. First Aid Online Classes — American Red Cross</li> <li>• American Red Cross (Amerika Qizil Xoch) tomonidan taklif etilgan onlayn birinchi yordam kurslari. Interaktiv modul orqali CPR, yaralanishlarni boshqarish va boshqa birinchi yordam ko‘nikmalari.</li> </ul> <p><b>2. CPR, AED va First Aid kursi — Alison Free Course: CPR, AED and First Aid</b></p> <p>Alison platformasidagi bepul kurs. Bu kursda CPR, AED ishlatish va favqulodda vaziyatlarda tez yordam asoslarini mustaqil o‘rganish mumkin.</p>

### 3.2.2 Simulyatsion kurs (tibbiy trening) mazmuni

<b>№</b>	<b>Bajariladi gan ishlar mazmuni</b>	<b>Eskizlar, chizmalar rasmlar,</b>	<b>Kerakli bo’lgan jixozlar.</b>	<b>Bajarilish tartibi</b>

1	<p><b>Qo'llarni yuvish</b></p>	<p>HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION</p>  <p>VectorStock VectorStock.com/6372085</p>  	<p>suyuq sovun, bir martalik qog'oz salfetka.</p>	<p><b>Ho'llash va sovunlash:</b> Qo'llarni toza suv bilan ho'llang va yetarli miqdorda sovun surting.</p> <p><b>Kaftlarni ishqalash:</b> Kaftlarni bir-biriga qaratib, aylanma harakatlar bilan ishqalang.</p> <p><b>Barmoqlar orasini tozalash:</b> O'ng kaftni chap qo'l orqasiga qo'yib, barmoqlarni bir-birining orasiga kiringazing va ishqalang. So'ngra qo'llarni almashtiring.</p> <p><b>Barmoqlarni qulflash:</b> Barmoqlarni bir-biriga ilashtirib (qulflab), barmoqlar orqa yuzasini qarama-qarshi kaft bilan ishqalang.</p> <p><b>Bosh barmoqlarni yuvish:</b> Chap qo'l bosh barmog'ini o'ng kaft bilan qisib ushlab, aylanma harakatlar bilan tozalang. Keyin o'ng bosh barmoqni ham shunday yuving.</p> <p><b>Tirnoqlar va barmoq uchlari:</b> O'ng qo'l barmoq uchlari chappi kaftga qo'yib, aylanma harakatlar bilan ishqalang. Bu tirnoq ostidagi mikroblarni ketkazadi. Keyin qo'llarni</p>
---	--------------------------------	---	---	--

				almashtiring.
2.	<p>Radial pulsni aniqlash. Bemorni qulay xolatda o'tkazish yoki yotqizish.</p>	  	<p>Suyuq sovun, bir martalik qog'oz salfetka. Sekundomer, harorat varaqasi, ruchka. Qizil ruchka.</p>	<p>Radial pulsni aniqlash.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1.Qo'llar yuviladi va quritiladi.</li> <li>2.Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi</li> <li>3.Bemor qulay xolatda o'tkaziladi yoki yotqiziladi.</li> <li>4.Bemorning qo'li bo'sh egilgan holatda bo'lishi kerak.</li> <li>5.Radial pulsni aniqlashda tekshiruvchi bilakning ichki yuzasi, 1/3 pastki qismi, 1 – barmoq asosi bo'ylab bilak arteriyasi tomini shunday ushlashi kerakki II, III, IV barmoqlari tomir ustida bo'lishi kerak.</li> <li>6.Pulsni tekshirayotgan vaqtda tekshiruvchi IV barmog'i bemorning I - barmog'i ro'parasida bo'lishi kerak.</li> <li>7.Pulsasiya qilayotgan arteriyani uchchala barmoq bilan paypaslab, asta bilak suyagining ichki tomoniga bosiladi</li> <li>8. Pulsni aniqlayotganda uni maromiga, to'liqligiga</li> </ol> <p>ESLATMA: ahamiyat</p>



beriladi. 9. Bilak arteriyasida pulsni sanash mumkin bo'lmaganda uyqu va chakka sanaladi. 10. sohalarida Natijasi harorat varaqasiga qizil ruchka belgilanadi. ESLATMA: 1.Puls urishini bun dan tashqari quyi dagi sohalarda aniqlash mumkin: a)Karotid puls – uyqu arteriyasida, ya'ni kekirdakning yon tomonidagi anatomik chuqurchada aniqlanib, kattalarda o'pka – yurak reani matsiyasini o'tkaz ganda foydalaniladi. b) Braxial puls - elka arteriyasida, ya'ni tirsak chuqurchasi markazining kichik barmoq aniqlanadi, tomonida asosan arterial qon bosimini o'lchashda foydalani ladi. v) Femoral puls – son arteriyasida, ya'ni tos suyagining yuqori oldingi qismi va chov birlashmasi o'rtasida aniqlanadi, asosan oyoqlarning qon bilan ta'minlanishi yoki

				<p>o'pka – yurak reanimasiyasi o'tkazilganda ko'krak qafasining kompressiyalarini baholashda foydalaniladi. g) Pedal puls – oyoq kaftining dorzal yuzasida va to'piqning ichki (medial) o'simtasini orqa pastroq qismida aniqlanadi, asosan oyoqlarning qon bilan ta'minlanishini baholashda foydalaniladi d) Apikal puls – yurak cho'qqisi turtkisida, ya'ni chap o'mrov o'rta chizig'i bo'ylab, 4 – 5 qovurg'alararo sohada stetoskop yordamida eshitiladi. e) Apikal va radial pulsni aniqlash orqali puls defisitini (tanqisligi) aniqlash:</p>
3	Arterial bosim (a.b.)ni o'lchash.		Tonometr, fonendoskop	<p>Arterial bosim (a.b.)ni o'lchash.</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Qo'llar yuviladi va quritiladi.</li> <li>2. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi</li> <li>3. Arterial bosimni o'lchash uchun bemor qulay o'tkaziladi yoki yotqiziladi.</li> </ol> <p>Bemorning o'ng yoki chap bilagini</p>


HANDS WASHING MEDICAL INSTRUCTION



VectorStock VectorStock.com/6372081



Диастолическое (нижнее)  
артериальное давление



Уровень давления в момент  
максимального расслабления  
сердца

Систолическое (верхнее)  
артериальное давление



Уровень давления в момент  
максимального сокращения  
сердца

### **Bajarish algoritmi:**

1. Bemor bilan ishonchli munosabat o'rnatiladi. Bemorga muolaja maqsadi va mohiyati tutushntiriladi. Bemor roziligi olinadi.

2. Hamshira qo'llarini yuvib, steril qo'lqop kiyadi.

3. Bemorga dori moddasi haqida ma'lumot beriladi.

4. Shprits ga kerakli miqdorda dori moddasini tortiladi.

5. O'nga zaruriy xolatni egallashiga yordam beriladi.

6. In'eksiya qilinadigan soha terisini tortiladi.

7. Igna kesimini yuqoriga qaratib teri bilan parallel qilib uchini teriga kiritiladi.

8. Ikki barmoq bilan ignani teriga bosiladi.

9. Chap qo'lni porshenga o'tqazing.

10. Uni bosib dori moddasini yuboriladi.

11. Spirtga ho'llangan steril paxtani bosmasdan ignani chiqariladi.

12. Shprits ni zararsizlantiruvchi eritmaga solinadi.

13. Qo'lqopni yechiladi.

14. Bajarilgan muolajani tibbiy hujjatlarga qayd etiladi.

## **4.Teri ostiga in'eksiya qilish**

**Kerakli jihozlar:** kasallik tarixi – 1 ta, hamshira varaqasi – 1 ta, lotok – 1 ta

**Kerakli xom ashyolar:** suyuq sovun – 1ml, qog‘oz sochiq – 20 sm, steril qo‘lqop – 1 ta, shprits – 1 ta (2,5,10), 70 % li etil spirti – 1 ml, paxta sharcha – 2-3 gr, dori moddasi – 1 ta (ampula)

**Bajarish algoritmi:**

1. Bemor bilan ishonchli munosabat o‘rnatiladi. Bemorga muolaja maqsadi va mohiyati tutushntiriladi. Bemor roziligi olinadi.
2. Hamshira qo‘llarini yuvib, steril qo‘lqop kiyadi.
3. Bemorga dori moddasi haqida ma‘lumot beriladi.
4. Shprits ga kerakli miqdorda dori moddasini tortiladi.
5. Bemordan to‘siq bilan o‘rash kerakligi yoki yo‘q so‘raladi.
6. O‘nga zaruriy xolatni egallashiga yordam beriladi.
7. In‘eksiya qilinadigan soha terisini spirt bilan artiladi.
8. Ikkita paxta sharcha bilan ketma-ket artiladi (avval maydonni so‘ng In‘eksiya qilinadigan sohani).
9. In‘eksiya qilinadigan sohani chap qo‘l bilan ushlanadi.
10. Ignani 450 burchak ostida ushlab burmalangan terining yuza qismiga 1,5 mm chuqurlikda kiritiladi.
11. Barmoq bilan ignaning qonyo‘lasidan ushlab turiladi.
12. Chap qo‘lni porshenga o‘tkazib dori moddasini yuboriladi.
13. Shprits ni qo‘ldan qo‘lga o‘tkazmaslikka harakat qilinadi.
14. Ignani qonyo‘lasidan ushlab chiqariladi.
15. Teshilgan sohaga spirtga namlangan steril paxta bosiladi.
16. Paxta bilan in‘eksiya Bajarilgan sohani sekin uqalanadi.
17. Muolajadan so‘ng bemor o‘zini yaxshi xis qilayotganligiga ishonch hosil qilinadi.
18. Qo‘llar yuviladi, zararsizlantiriladi.
19. Bajarilgan muolaja tibbiy hujjatlarga qayd etiladi.

**5.Mushak orasiga in‘eksiya qilish**

**Kerakli jihozlar:** kasallik tarixi – 1 ta, hamshira varaqasi – 1 ta, lotok – 1 ta

**Kerakli xom ashyolar:** suyuq sovun – 1ml, qog‘oz sochiq – 20 sm, steril qo‘lqop – 1 ta, shprits – 1 ta (2,5,10), 70 % li etil spirti – 1 ml, paxta sharcha – 2-3 gr, dori moddasi – 1 ta (ampula)

**Bajarish algoritmi:**

1. Bemor bilan ishonchli munosabat o‘rnatiladi. Bemorga muolaja maqsadi va mohiyati tutushntiriladi. Bemor roziligi olinadi.
2. Hamshira qo‘llarini yuvib, steril qo‘lqop kiyadi.
3. Bemorga dori moddasi haqida ma‘lumot beriladi.

4. Shprintska kerakli miqdorda dori moddasini tortiladi.
5. Bemordan to'siq bilan o'rash kerakligi zarur yoki yo'qligini so'raladi.
6. O'nga zaruriy xolatni egallashiga yordam beriladi (qorinda yoki yonboshlash).
7. In'eksiya qilinadigan soha terisini spirt bilan 2 martalab artiladi.
8. In'eksiya qilinadigan sohani fiksatsiya qilinadi.
9. Ignani 2-3 mm teri ustida ushlab 90 gradus burchak ostida mushakka kiritiladi.
10. Chap qo'lni porshenga o'tkazib dori moddasini yuboriladi.
11. Iltilgan moyli eritmani kiritishdan oldin porshenni yuqoriga tortiladi.
12. Shprintska qon tushmayotganligiga ishonch hosil qilinadi va shundan so'ng eritma yuboriladi.
13. Ignani odatdagidek chiqariladi.
14. Paxtani teridan olmasdan turib in'eksiya bajarilgan sohani sekin uqalanadi.
15. Qo'lqop yechiladi.
16. Muolajadan so'ng bemor o'zini yaxshi xis qilayotganligiga ishonch hosil qilinadi.
17. Qo'llar yuviladi, zararsizlantiriladi.
18. Bajarilgan muolaja tibbiy hujjatlarga qayd etiladi.

#### **6.Qon bosimini o'lchash texnikasi.**

-Qon bosimi tinch holatda, 5 daqiqa dam olgandan (agarda undan oldin jismoniy yoki ruhiy zo'riqish holatlari ko'zatilgan bo'lsa 15-30 daqiqadan keyin) so'ng o'lchanadi;

-O'lchash vaqtida tekshiriluvchi o'ziga qulay holatda, kaftlarini tepaga qaratgan holda qo'llarini stol ustiga cho'zib o'tirgan yoki to'shakda yotgan bo'lishi lozim;

-Tanometr manjeti yalong'ochlangan tirsak bo'g'imidan 2 sm yuqoriga o'ralib yurak satxiga to'g'ri kelishi zarur;

-Kiyim manjeta o'ralgandanyuqorisohanisiqibturmasligikerak;

- Qonbosimini o'lchashdan oldin tekshirilayotgan kishi birsoat davomida achchiqchoy, qaxva ichmasligi, 30 daqiqada davomida sigaret vanosvoy chekmasligi lozim;

-

Tanometr manjetiga havohaydashdan oldin tirsak chuqurchasi sohasida tomir urishini aniqlab fonendoskopni shu joyga qo'yish kerak;

-Havohaydash qopchasida g'iburagichni maxkam yopib, qopchani qetma-ket ravishda bir necha marotaba siqib manometr gahavoyuborish va shu bujarayonni tirsak chuqurchasi da tomir urishi yo'qolgandanso'ng bosimiyana 30 mm simobustuniga oshganga qadardavom ettirish lozim.

- Bosimni o'lchashdan oldin manometr strelkasi 0 da turish kerak; Undanso'ng manjetadagi havosekinastalik bilan 1 soniyada 20 mm simobustunida rajasidachi qarilibaynipaytda fonendoskop bilan tirsak chuqurchasi ustida yelka arteriyasi tonlari eshitib borilish zarur;

-Elka arteriyasi ustida ilk dukullagantovush (tonlar) ning paydobo'lishi (1 bosqich) – qon bosimining yuqoridarajasi (sistolik) ko'rsatkich hisoblanadi;

Yelka arteriyasi ustida so'nggi dukullagantovush (tonlar) ning yo'qolishi (2 bosqich) – qon bosimining pastkidarajasi (diastolik) ko'rsatkich hisoblanadi;

-Bosim 1-2 daqiqava unda ko'proqtan affus bilan kamida 2 marotaba o'lchanish lozim, mabodoko'rsatkichlar bir-biridan keskin farqqilsa 3 va 4 marotaba o'lcha bko'riladivaulardan «o'rtacha» sitekshiruv natijasideb hisoblanadi

## **7. Markaziy venoz bosimni o'lchash.**

**Kerakli jihozlar:** steril qo'lqop, sistema, fiziologik eritma, shtativ, paxta.

Bemorga muolaja xaqida tushuntiriladi.

Bemor tanasi bir xil tekislikda yotkiziladi. Sababi organizmdagi suyuqliklar bir xil taqsimlanishi kerak.

Bemor yuzi katetr kirgiziladigan tomonga qarshi tarafga qaratiladi.

Shifokor tavsiyasi bilan bemor kuragi ostiga yostikcha yoki sochik quyiladi.

Hamshira qo'llarini olti etapda yuvib steril kulkop kiyiladi.

Muolaja uchun steril stol tayyorlaydi.

Steril stolga: nabor, spirt, yod, novokain 0.5%, shprints, suyuq dori, leykoplaster,

Xamshira kerakli anjomlarni shifokorga uzatib turadi.

## **8. Termometriya.**

**Kerakli jihozlar:** termometr, toza salfetka, soat, kasallik tarixi, sochiq

Bemorga muolaja xakida tushuntiriladi.

Termometrni bemorga berishdan oldin mushak osti chukurchalari ko'zdan kechirish va kuritish kerak.

Termometr kutisidan steril mato bilan olinadi, okib turgan suvda yuviladi va kuritiladi.

Termometr simob ustuni 35\*S belgisigacha tushkunigacha silkitiladi.

Termometr kultik ostiga kuyilganda yelka suyagi kukrak tomonga bosiladi.

10 minutdan so'ng termometr olinadi va natija kuriladi.

## **9. Puls tezligini hisoblash**

**Kerakli jihozlar:** sekundomerli soat, ruchka, tomir urishning grafik tasvirini qayd qiluvchi 004 – shakl varaqa, kasallik tarixi, sochiq yoki salfetka.

**Kerakli asboblari:** sekundomerli soat.

**Muolajani bajarish texnikasi:**

1. Pulsni bilakoldiyuzasidabir barmoqasosidabilanarteriyasidananiqlaniladi.

2. Muskullar vapaylartarangligipaypaslashgaxalaqitbermasligiuchunayolning qo'li bo'sh qo'yiladi.

3. Tekshiruvchi ayolning qo'lini o'ng qo'lning barmoqlaribilan bilak – kaft bo'g'imi sohasida bo'shginaushlanadivao'ng qo'l bilantekshiruvchiningyuragisatxiga qo'yiladi.

4. Birinchi barmoqnitirsaktomoniga, 2-3-4 barmoqlaresabilaktomonigabosiladi.

5. Pulsatsiya qilayotgan arteriyani uchlab barmoq bilan paypaslab, unibilaksuyagining ichki tomoniga bosiladi.

6. Tomir urishini kamida 30 sekund sanab, olingan raqam 2 ga ko'paytiriladi.

**Eslatma:** Pulsning sekinlashuvi bradikordiya, tezlashuvi taxikardiya deyiladi.

Pulsni – chakka, son va uyqu arteriyasidan aniqlash mumkin.

Pulsni tezlashganligi ko'p xolatlarda ichki a'zolarida qon ketayotganligini yoki xaroratni ko'tarilganligini bildiradi.

#### **10. Defibrillyatsiya o'tkazish texnikasi**

**Maqsad:** talabalarga defibrillyatsiya o'tkazish texnikasini o'rgatish

**Ko'rsatma:** qorinchalar fibrillyatsiyasi

**Kerakli anjomlar:** defibrillyator, elektr o'tkazuvchi gel

#### **Bajarish bosqichlari:**

Bemorga umumiy yondashish

Bemorni tug'ri xolatda joylashtirish

Elektroimpuls terapiya shart -shoritlariga rioya qilish kerak: reanimatsiya qatnashchilaridan xech biri bemor krovatiga tegishi kerak emas.

Elektroimpuls terapiya texnikasiga rioya qilish kerak.: Defibrillyatorning bir elektrodi tushning o'ng yoni, yuqori soxasi umrov ostiga, ikkinchi elektrod qo'ltik osti urta chizig'i buyicha chap surgichning lateral tomoniga o'rnatiladi.

Kukrak soxasi yueasi elektro'tkazuvchi gel yoki tuzli eritmaga botirilsa doka bilan ishlov beriladi.

#### **10. Nafas olishni hisoblash:**

**Kerakli anjomlar:** Sekundomer. 2.F-003. 3.F-004.

-Nafasni sanash uchun bemor karavotda

-Bemorning ko'krak qismida qalin kiyimlar bo'lmasligi kerak

-Bemor oldida joylashib o'tirib, uning fikrini gap bilan chalg'itasiz.

-Shu bilan bir qatorda qo'lingizni uning puls urushini aniqlamoqchi bo'lganday ushlaysiz.

-O'zingiz esa sekundomerni bilgilaysiz

-Ko'zingiz bilan bemorni ko'krak qafasi har biri ko'tarilib, tushish harakatini sanaysiz.

-Nafas harakati 1 minut davomida sanaladi va F-003 hujjatidagi F-004 hujjatiga yozib qo'yiladi.

#### **11. Nafas siqilganda yordam ko'rsatish algoritmi.**

-Xavf sababini aniqlash.

-Xavo kelishini ta'minlash.

-Shaxsiy muxofaza.

-Agar shikastlangan xushsiz bo'lsa, nafas yo'llarini ochish va tozalash.

-Nafas borligini aniqlash; ko'krak qafasi ekskursiyasi, o'pka auskul'tatsiyasi.

-Agar shikastlangan nafas olmasa, tezda og‘izdan –og‘izga, og‘izdan-buro‘nga, AMBU qopchasi bilan sun‘iy o‘pka ventilyatsiyasini o‘tkazish

## **12. O‘tkir nafas yetishmovchiligida yordam ko‘rsatish algoritmi.**

- Bemorga umumiy yondashish.
- O‘tkir nafas yetishmovchiligi darajasini aniqlash.
- Bemorningxolatinianiqlash.
- Teriranginianiqlash.
- Puls vanafassoninianiqlash.
- O‘pka auskultatsiyasini o‘tkazish.
- Nafas olish soni 1 min ichida 25-28 ta bo‘lganda kislorodterapiya qo‘llash.
- Nafas olish soni 1 minutda 40 vaundanortgandasun‘iy o‘pka ventilyatsiyasi ni o‘tkazish.

## **13. Kislorodoterapiya.**

- Bemorga umumiy yondashish va kislorodoterapiyaga ko‘rsatmalarni aniqlash; gipoksemik, gemik, sirkulyator, to‘qima gipoksiyasi.
- Kislorodoterapiya usulini aniqlash; endonazal katetrlar, niqoblar, endotraxeal yoki traxeostomik nay yordamida kislorodoterapiya o‘tkazish, Kislorodoterapiya berilayotgan xavoda doimiy qonsentratsiyada, uzoq muddat va uzluksizo‘tkazilishi lozim.
- Mustaqil nafas bo‘lganda endonazal katetrlardan o‘lchamiga muvofiq ravishda pastki burun yo‘liga kiritish orqali qo‘llaniladi ( katetr o‘lchami burun qanotlaridan quloq yostiqchasigacha bo‘lgan masofa).
- Mustaqilnafasbo‘lmagandaniqoblaryordamidayuqoriqonsentratsiyadagi kislorod beriladi.

## **14.Sun‘iy o‘pka ventilyatsiyasini “Ambu” qopchasi yordamida o‘tkazish.**

- Bemorga umumiy yondashish.
- Nafas borligini aniqlash
- Nafas yo‘llari o‘tkazuvchanligini ta‘minlash; og‘iz bo‘shlig‘i sanatsiyasi, boshini orqaga egish, pastki jag‘ni oldinga surish, xavo o‘tkazgichdan foydalanish.
- Mos o‘lchamdagi niqobni topib undan to‘g‘ri foydalanish. Ambu qopchasini ritmik siqish, ko‘krak qafasini nazorat qilgan xolda.
- Es xushi darajasi gemodinamika,
- Mustakil nafas paydo bo‘lishi monitoringi

## **15.Miokard infarqtida shoshilinch yordam ko‘rsatish**

- To‘g‘ri yotqizilib, siquvchi kiyimlar yechiladi.
- Yuqori nafas yo‘llari tozalanadi.
- Mutlaqo tinchlik, yotishi, qimirlamasligi kerak.
- Tilostiganitroglitserin 1-2 tabletka yoki validol beriladi
- V/i morfin gidrokslorid 1%-1 ml. Bolalarga 1 yoshgacha man etiladi

### **16. Stenokardiya xurujidayordamko'rsatish**

- To'g'ri yotqizilib, siquvchi kiyimlar yechiladi.
- Yuqori nafas yo'llari tozalanadi.
- Bemor tinch yotishi, qimirlamasligi kerak.
- Tilostiganitroglitserin 1-2 tabletka yoki validol beriladi.

### **17. Yurak astmasida muolaja bajarish algoritmi**

- Qulay xolat (bemor oyoqlari tushirilib yarim o'tirgan xolatda) yaratilib berilishi lozim.
- Barcha tor kiyimlarechiladi.
- Xonagatozaxavokiritiladi.
- Kislrod namlabberiladi. (30-45 min).
- Qo'l-oyoqlarga tasmatortiladi. (Pul's saqlanganbo'lishishart).

### **18. O'pkashishidatez yordam ko'rsatishalgoritmi.**

- Qulayxolati bosh tomoni ko'tarilganxolda bo'lishi lozim.
- Barcha tor kiyimlarechiladi.
- Xonagatozaxavokiritiladi.
- Yuqori nafasyo'llaridagishilimshiq moddalarelektriyoki mexaniq so'rg'ichbilanso'ribolinadi.
- Kislrodnikattalarga 50-70% spirdano'tkazib Bobrov apparatida 30-45 daqiqa beriladi, bolalarga 30% spirdano'tkazilib 10-30 daqiqa beriladi.

### **19. Bronxial astma xurujida tez tibbiy yordam berish.**

- Bemorga nafas olish uchun qulay xolat yaratish, yelkasiga 2-3ta yostiq qo'yish.
- Toza xavo bilan ta'minlash, allergenlarni ta'sirini to'xtatish.
- Bemorni sovuqotmasligi uchun ko'raga o'rash, yelvizaklardan asrash.
- Ortiqcha jismoniy va ruxiy zo'riqishdan asrash.
- Qisib turgan kiyimlarini yechish.
- Issiqchoy, yoki 4/1choy qoshiq ichimlik sodasi qo'shilgan iliq sut berish.
- Chalg'ituvchi terapiya, oyoqlarga vanna, ko'krak qafasiga xantalma qo'yish.
- Cho'ntak ingalyatorlaridan foydalanish (astmopent, salbutamol, berotek, berodual va h.k.).
- Vrach ko'rsatmalariga binoan dori vositalarini qo'llash.

Xuruj vaqtida 1-yordam maqsadida eufillin 2,4%-5,0-10,0ml t/i qilinadi. Eufillin yordam bermaganda gormonlar tavsiya etiladi. Teofillin, eufillin tabletkalarini ichib turish xam mumkin.

Bronxial astma surunkali kasal bo'lgani uchun kasallik xurujlarini oldini olish maqsadida bemorlar vaqti - vaqti bilan shifoxonada davolanishlari shart. Antibakterial davo, antigistamin, anti allergik dorilar, bronxolitiklar, yo'tal dori, balgam ko'chiruvchi va simptomatik davo qiladilar. Fizioterapevtik davo, sanatoriya sharoitida davolanish tavsiya etiladi.

## **20..Traxeostomiya va qonikotomiyani bajarish uchun kerakli asboblarni tayyorlash**

Traxeostomiya jarroxlik amaliyoti quyidagi asboblarni yordamida bajariladi:

O'tkir tig'li anotomik jarrohlik pinseti, bir nechta tishli va tishsiz jarohat kengaytirgichlar, turli hajmdagi qisqichlar, elevator, o'tkir ilgak, Trusso traxeya kengaytirgichi, jarrohlik ignalar, shprits, traxeya naychalari, steril salftka.

### **Traxeyani intubatsiya qilish uchun bemorni tayyorlash:**

**Kerakli asboblarni tayyorlash:** laringoskop va uning klinoklari, endotraxeal naychalari va o'tkazgichlar, kislorodga ulangan niqobli nafas qopchasi, so'rg'ich salftkalar, shprits, leykoplastir, fonendoskop, laringial qisqichlar, havo o'tkazgich.

### **Traxeyani intubatsiya qilish texnikasi:**

- bemorga umumiy yondoshiladi.
- Kerakli asboblarni ishchi stolga tayyorlanadi.
- traxeya intubatsiyasining 2 xil usuli bo'lib, 1-usul bemorlar faol, es-hushi saqlangan holatda bajariladi.
- klassik Djekson holatida bosh ortga keskin qayirilgan va bosh ostiga 6-8 sm qalinlikdagi yostiqcha qo'yiladi.
- 15-20 soniya orqali davomida, nafas qopchasi yordamida kislorod ingalyatsiyasi ostida tezlatilgan sun'iy nafas beriladi.
- o'ng qo'li bilan bemorning og'zi tezda ochiladi.
- laringoskopni dastasidan chap qo'l bilan ushlanadi va o'roqchasini og'iz bo'shlig'iga og'izning o'ng burchagidan kiritib, tilni chapga shunday so'riladiki, bu bilan og'iz bo'shlig'ini ko'rish imqoniyati bo'lsin.
- laringoskopni o'rta chiziq bo'ylab ichkari kiritiladi
- ko'rish maydonida avval yumshoq tanglay tilchasi, so'ngra tomoq usti tog'ayi va til ildizi o'rtasidagi chuqurchasiga joylashtiriladi.
- o'ng qo'lga traxéal naychani olib, og'izning o'ng burchagidan og'izga kiritiladi. So'ngra og'iz halqumga o'tkazilib, ovoz yorig'idan traxeyaga kiritiladi.
- intubatsion naycha ovoz boylamlari orasidan o'tkazib manjeta boylamlar ortidan ko'rinmay qolgunicha kiritiladi.
- laringoskop chiqaziladi, shpritsga havo to'ldirib manjetka ishiriladi.
- hamshira algoritm ketma-ketligida anesteziolog vrachga asboblarni uzatib turadi.
- endotraxeal naycha chiqib ketmasligi va bemor tishlab olmasligi uchun zich doka tamponi o'rnatiladi va leykoplastirda maxkamlanadi.

## **21.Shokda kechiktirib bo'lmaydigan yordam tadbirlarini o'tkazish**

- nafas yo'llari o'tkazuvchanligini tiklash;
- qon ketishini vaqtinchalik tuxtatish;
- Organizm to'qimalarining izolyatsiyasi
- nafas yo'llari o'tkazuvchanligini tiklash va SO'V o'tkazish
- Kislorodterapiya
- Barcha tashqi qon ketishni to'xtatish

- Oyoqlarni 20-30 sm balandlikka ko'tarish lozim. Agarda bemorda chanoq, oyoqlar, bosh, ko'krak qafasi, qorin, bo'yin va umurtqa pog'onasida jiddiy shikastlanishi ko'zatsilsa, u holda bemorni chalqancha yotkizgan holatda ushlab turish kerak.

- Agar suyak va bo'g'im jarohatlanganligiga shubha paydo bo'lsa, darhol shinalarni qo'yish kerak immobilizatsiya qilish;

-jaroxatlangan bemorni tezda yaqin tibbiyot muassasiga olib borib og'riqsizlantirish zarur.

## **22.Anafilaktik shokda yordam ko'rsatish algoritmi.**

1.Organizmga allergen kirishini to'xtatish lozim (antibiotiklar, venaga yuboriladigan, teriga surtiladigan, ichiladigan dorilarni to'xtatish).

2.Agar zaxarli gazanda chaqqan bo'lsa yuqoriroqdan tasma tortiladi, gazanda chaqqan soxaga 0,1 % li 0,2- 1 ml adrenalin qilinadi.

3.Gidrokortizon 3-5ml m/o .

Kordiamin 2ml m/o.

Eufillin 2,4 %li -10 ml v/i sekin yuboriladi.

Suprastin 2%li 2 ml m/o.

## **23.Komada kechiktirib bo'lmaydigan yordam tadbirlarini o'tkazish**

- to'lik tinchlikni ta'minlash;

- boshga sovuk qo'yish;

-tez yordam mashinasini chakirish, kasalxonaga gospitalizatsiya qilish;

## **24. Gipoglikemik komada yordam ko'rsatish algoritmi.**

- Bemorni iloji boricha yotqizib, tinchlantirish kerak.

- 1 stakan shirin choy va non beriladi.

- Qand yoki qonfet shimishga beriladi.

- Bemoryiqilganbo'lsa, jaroxatlarbog'lanadi.

- Bemor bexushbo'lsa 40 ml-40% glyo'qoza v/it.

## **25.Elektrotravmada shoshilinch yordam algoritmi**

-Xalokatjoyidaelektr toki manbainianiqdash

- Elektr toki ta'sirini to'xtatish.

- Tokningkirishvachiqishteshiklarinitopish.

- Qon aylanishvanafas to'xtagandao'pka-yurakreanimatsiyasi.

- EKG – monitoring va intensiv terapiya.

- Jaroxatlarga aseptik bog'lam qo'yish.

**1.Ovqat hazm qilish tizimi holatini baholash(qusish, ich kelishi, qorin dam bo'lishi):**

**Kerakli jihozlar:** lotok – 1 ta, fonendoskop – 1 ta, sekundomer – 1 ta, chizg'ich – 1 ta, baholash varaqasi – 1 ta

**Kerakli anjomlar:** suyuq sovun – 1ml, qog'oz sochiq – 20 sm, steril qo'lqop – 1 ta, paxta sharcha – 2- 3 gr

### **Bajarish algoritmi:**

1. Bemor bilan ishonchli munosabat o'rnatiladi.
2. Muolaja mohiyati va ketma-ketligini tushuntiriladi.
3. Bemordan muolajaga roziligini olinadi.
4. Kerakli jihozlar tayyorlanadi.
5. Hamshira qo'llari yuviladi va quritiladi.
6. Suxbatlashishga qulay joy tayyorlanadi.
7. Bemorning shikoyatlari asosida muammolari aniqlanadi.
8. Og'iz bo'shlig'ining shilliq qavati, til, milk va tishlar ko'zdan kechiriladi.
9. Qorin sohasidagi terining patologik o'zgarishlar (sariq, pigmentatsiya), yaralar, jarrohlik amaliyotidan keyingi chandiqlar, venalar yo'g'onlashuvi, qorin qonturlari, o'simtasimon hosilalar, qorin shishishi (kindikning tashqariga chiqishiga, botishiga va qorin pastki qismi shishiga e'tibor berish) bilan kechadigan holatni, axlat ajralishi (rangi, hidi, tarkibi) ni ko'zatiladi.
10. Qorin bo'shlig'i devorlari harakati va qorin aortasi pulsatsiyasini tekshirish uchun ko'zlar qorin darajasida bo'lishini ta'minlagan holda o'tiriladi va qorin aortasi pulsatsiyasini (qorin yuqori qismining oldingi o'rta chizig'idan 1-2 sm chapda) hamda ichak peristaltikasi ko'zatiladi. Ushbu jarayonlarda me'yoridan ortiq faollashish mavjudligini tekshirish.
11. Ovqat hazm qilish a'zolari tizimini auskultatsiya qilish va baholash.  
Ichak peristaltikasi tovushlari 5-15 soniyada 1 marta eshitilishi me'yoriy holat hisoblanadi.  
Peristaltika tovushlari yo'nalishlari yo'qolishini aniq qayd etish uchun auskultatsiyani 5 daqiqadan ortiq vaqt davomida ko'zatis kerak.

### **26. Qorin bo'shlig'ini perkussiya qilish va ovqat hazm qilish a'zolari tizimini baholash.**

Qorin bo'shlig'ining yengil tarzidagi perkussiyasi butun qorin bo'shlig'i sohasi bo'ylab amalga oshiriladi.

Jigar va taloq kattalashuvini aniqlash: jigar kattalashuvi va shakli individual xarakterga ega. Perkussiyani o'ng o'mrov chizig'idan boshlab tovush jarangdorligi bo'g'iq holatga o'tadigan joyda ya'ni, o'pka va jigar chegarasiga belgi qo'yiladi.

Keyin perkussiyani o'rta o'mrov chizig'ida pastdan yuqoriga tartibida amalga oshirib, timpaniq tovush bo'g'iq tovushga aylanadigan joyda, yani ovqat hazm qilish yo'llari va jigar chegarasida belgi qo'yiladi va ular o'rtasidagi masofa o'lchanadi. Agar masofa 12 sm dan kam bo'lsa jigarda kattalashuv yo'qligi.

Taloq kattalashuvini tekshirishda Traube uchburchagi (chap tomon oldingi chizig'i va VI qovurg'alar oralig'i, shuningdek, qovurg'a do'ngligi sohasi). Timpaniq tovush chiqsa taloq kattalashgani haqidagi taxmin yo'qqa chiqadi, agar bo'g'iq tovush chiqsa taloq kattalashgani haqidagi taxmin kuchayadi, shuning uchun ham palpatsiya o'tkazish zarur.

Jigar va taloqni tekshirishda og'riq paydo bo'lishi.

Jigar va taloq kattalashuvi yoki yallig'lanishida har bir a'zo ustidagi teri qismiga urib ko'rish kerak, chunki bunda paydo bo'ladigan tebranishlar natijasida bemor

og‘riqdan shikoyat qiladi. Asosan (o‘ng) qo‘lni musht qilib tugiladi, boshqa qo‘l esa perkussiya joyiga qo‘yiladi, so‘ngra asosiy qo‘l bilan yordamchi qo‘lning yuza qismiga urib ko‘riladi.

### **3. Ovqat hazm qilish tizimi a‘zolari palpatsiyasini o‘tkazish va baholash.**

Palpatsiya oxirgi navbatda o‘tkaziladi. Agar bemor qorin og‘rig‘idan shikoyat qilsa, unda palpatsiya natijasida olinadigan ma‘lumot katta ahamiyatga ega bo‘ladi. kuchli og‘riq sohasini oxirgi navbatda palpatsiya qilish zaruriy qoidalardan biri hisoblanadi. Qorin devorlari kuchlanishini kamaytirish uchun ikkala tizzani bukish va og‘iz orqali nafas olish kerak.

Yuzaki palpatsiya: yuzaki peritonitning belgilari – qorin devolari taranglashishi, mushaklar himoyasi mavjudligini aniqlash uchun o‘tkaziladi. Asosiy (o‘ng) qo‘l barmoqlarini jipslashtirish va qorin bo‘shlig‘i sohasi palpatsiyasini amalga oshiriladi.

Palpatsiya davomida chegaralangan og‘riq va qo‘lni darhol olish natijasida og‘riq paydo bo‘lishi (Blyumberg simptomi).

Oshqozon va 12 barmoqli ichak yaralarida bosilgan joylarda og‘riq seziladi (epigastral sohasi, qovurg‘a sinishida singan soha).

### **27.Ko‘ngil aynish va qusishda bemorni ko‘zatish.**

Ko‘ngil aynish va qusish mavjud bemorlarni aniqlanadi va quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

Ko‘ngil aynishi va qusishda suhbat (intervyu), ko‘rik, palpatsiya va auskultatsiya o‘tkaziladi.

Qusish massasi ko‘zatiladi va baholanadi.

Hamshira qo‘llari yuviladi va quritiladi.

Ko‘zatuvi va baholash natijalarini qayd etib boriladi.

### **28.Nafas olishni hisoblash:**

**Kerakli anjomlar:** Sekundomer. 2.F-003. 3.F-004.

1.Nafasni sanash uchun bemor karavotda

2.Bemorning ko‘krak qismida qalin kiyimlar bo‘lmasligi kerak

3.Bemor oldida joylashib o‘tirib, uning fikrini gap bilan chalg‘itasiz.

4.Shu bilan bir qatorda qo‘lingizni uning puls urushini aniqlamoqchi bo‘lganday ushlaysiz.

5.O‘zingiz esa sekundomerni bilgilaysiz

6.Ko‘zingiz bilan bemorni ko‘krak qafasi har biri ko‘tarilib, tushish harakatini sanaysiz.

7.Nafas harakati 1minut davomida sanaladi va F-003 hujjatidagi F-004 hujjatiga yozib qo‘yiladi.

### **29.Ovqat hazm qilish, jigar, siydik ajratish a‘zolari kasalliklarda bemorlarni tekshiruv usullariga tayyorlash**

**Kerakli jihozlar:** lotok – 1 ta, fonendoskop – 1 ta, sekundomer – 1 ta, chizg‘ich – 1 ta, baholash varaqasi – 1 ta suyuq sovun – 1 ml, qog‘oz sochiq – 20 sm, steril qo‘lqop – 1 ta, paxta sharcha – 2- 3 gr

**Bajarish algoritmi:**

1. Bemor bilan ishonchli munosabat o‘rnatiladi.
2. Muolaja mohiyati va ketma-ketligini tushuntiriladi.
3. Bemordan muolajaga roziligini olinadi.
4. Kerakli jihozlar tayyorlanadi.
5. Hamshira qo‘llari yuviladi va quritiladi.
6. Suxbatlashishga qulay joy tayyorlanadi.
7. Bemorning shikoyatlari asosida muammolari aniqlanadi.
8. Og‘iz bo‘shlig‘ining shilliq qavati, til, milk va tishlar ko‘zdan kechiriladi.
9. Qorin sohasidagi terining patologik o‘zgarishlar (sariq, pigmentatsiya), yaralar, jarrohlik amaliyotidan keyingi chandiqlar, venalar yo‘g‘onlashuvi, qorin qonturlari, o‘simtasimon hosilalar, qorin shishishi (kindikning tashqariga chiqishiga, botishiga va qorin pastki qismi shishiga e‘tibor berish) bilan kechadigan holatni, axlat ajralishi (rangi, hidi, tarkibi) ni ko‘zatiladi.

10. Qorin bo‘shlig‘i devorlari harakati va qorin aortasi pulsatsiyasini tekshirish uchun ko‘zlar qorin darajasida bo‘lishini ta‘minlagan holda o‘tiriladi va qorin aortasi pulsatsiyasini (qorin yuqori qismining oldingi o‘rta chizig‘idan 1-2 sm chapda) hamda ichak peristaltikasi ko‘zatiladi. Ushbu jarayonlarda me‘yoriydan ortiq faollashish mavjudligini tekshirish.

11. Ovqat hazm qilish a‘zolari tizimini auskultatsiya qilish va baholash.

Ichak peristaltikasi tovushlari 5-15 soniyada 1 marta eshitilishi me‘yoriy holat hisoblanadi.

Peristaltika tovushlari yo‘nalishlari yo‘qolishini aniq qayd etish uchun auskultatsiyani 5 daqiqadan ortiq vaqt davomida ko‘zatish kerak.

12. Qorin bo‘shlig‘ini perkussiya qilish va ovqat hazm qilish a‘zolari tizimini baholash.

Qorin bo‘shlig‘ining yengil tarzdagi perkussiyasi butun qorin bo‘shlig‘i sohasi bo‘ylab amalga oshiriladi.

Jigar va taloq kattalashuvini aniqlash: jigar kattalashuvi va shakli individual xarakterga ega. Perkussiyani o‘ng o‘mrov chizig‘idan boshlab tovush jarangdorligi bo‘g‘iq holatga o‘tadigan joyda ya‘ni, o‘pka va jigar chegarasiga belgi qo‘yiladi. Keyin perkussiyani o‘rta o‘mrov chizig‘ida pastdan yuqoriga tartibida amalga oshirib, timpaniq tovush bo‘g‘iq tovushga aylanadigan joyda, yani ovqat hazm qilish yo‘llari va jigar chegarasida belgi qo‘yiladi va ular o‘rtasidagi masofa o‘lchanadi. Agar masofa 12 sm dan kam bo‘lsa jigarda kattalashuv yo‘qligi.

Taloq kattalashuvini tekshirishda Traube uchburchagi (chap tomon oldingi chizig‘i va VI qovurg‘alar oralig‘i, shuningdek, qovurg‘a do‘ngligi sohasi). Timpaniq tovush chiqsa taloq kattalashgani haqidagi taxmin yo‘qga chiqadi, agar bo‘g‘iq tovush chiqsa taloq kattalashgani haqidagi taxmin kuchayadi, shuning uchun ham palpatsiya o‘tkazish zarur.

Jigar va taloqni tekshirishda og‘riq paydo bo‘lishi.

Jigar va taloq kattalashuvi yoki yallig‘lanishida har bir a‘zo ustidagi teri qismiga urib ko‘rish kerak, chunki bunda paydo bo‘ladigan tebranishlar natijasida bemor og‘riqdan shikoyat qiladi. Asosan (o‘ng) qo‘lni musht qilib tugiladi, boshqa qo‘l esa perkussiya joyiga qo‘yiladi, so‘ngra asosiy qo‘l bilan yordamchi qo‘lning yuza qismiga urib ko‘riladi. Perkussiya-o‘ng qovurg‘a do‘ngligi sohasi, taloqda-Traube uchburchagi.

Ovqat hazm qilish tizimi a‘zolari palpatsiyasini o‘tkazish va baholash.

Palpatsiya oxirgi navbatda o‘tkaziladi. Agar bemor qorin og‘rig‘idan shikoyat qilsa, unda palpatsiya natijasida olinadigan ma‘lumot katta ahamiyatga ega bo‘ladi. kuchli og‘riq sohasini oxirgi navbatda palpatsiya qilish zaruriy qoidalardan biri hisoblanadi. Qorin devorlari kuchlanishini kamaytirish uchun ikkala tizzani bukish va og‘iz orqali nafas olish kerak.

Yuzaki palpatsiya: yuzaki peritonitning belgilari – qorin devolari taranglashishi, mushaklar himoyasi mavjudligini aniqlash uchun o‘tkaziladi. Asosiy (o‘ng) qo‘l barmoqlarini jipslashtirish va qorin bo‘shlig‘i sohasi palpatsiyasini amalga oshiriladi.

Palpatsiya davomida chegaralangan og‘riq va qo‘lni darhol olish natijasida og‘riq paydo bo‘lishi (Blyumberg simptomi).

Oshqozon va 12 barmoqli ichak yaralarida bosilgan joylarda og‘riq seziladi (epigastral sohasi, qovurg‘a sinishida singan soha).

Ko‘ngil aynish va qusishda bemorni ko‘zatish.

Ko‘ngil aynish va qusish mavjud bemorlarni aniqlanadi va quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

Ko‘ngil aynishi va qusishda suhbat (intervyu), ko‘rik, palpatsiya va auskultatsiya o‘tkaziladi.

Qusish massasi ko‘zatiladi va baholanadi.

Hamshira qo‘llari yuviladi va quritiladi.

Ko‘zatuv va baholash natijalarini qayd etib boriladi

### **31.Oshqozon va ichakni kasalliklari xurujida qorin bo‘shlig‘ini paypaslab tekshirish (palpatsiya)**

**Kerakli jihozlar:** lotok – 1 ta, baholash varaqasi – 1 ta suyuq sovun – 1ml, qog‘oz sochiq – 20 sm, steril qo‘lqop – 1 ta

### **Bajarish algoritmi:**

1. Bemor bilan ishonchli munosabat o'rnatiladi.
2. Muolaja mohiyati va ketma-ketligini tushuntiriladi.
3. Bemordan muolajaga roziligini olinadi.
4. Kerakli jihozlar tayyorlanadi.
5. Hamshira qo'llari yuviladi va quritiladi.
6. Suxbatlashishga qulay joy tayyorlanadi.
7. Yuzaki paypaslash:
8. Bemorning o'ng tomonida o'tiriladi
9. Tekshiruvchi qo'lini bemor qorniga kaftning ichki tomoni bilan to'liq qo'yadi va shu soxada og'riq borligini va qorin devori qarshiligini aniqlaydi
10. Qorin palpatsiyasini chap yonbosh sohasidan boshlab so'ngra, o'ng yonboshga o'tiladi va shu taxlitda simmetrik joylarni paypaslab, solishtirib aniqlab boriladi.
11. Hamshira qo'llari yuviladi va quritiladi.
12. Ko'zatuv va baholash natijalarini qayd etib boriladi.

**Eslatma:** o'tkir appenditsitda yuzaki palpatsiya o'tkir og'riq va o'ng yonboshda qorin mushaklarining keskin qarshiligi aniqlanadi. O'tkir peritonitda butun qorin sohasida o'tkir og'riq, qorin devorlari taranglashishi, mushaklar himoyasi mavjudligi aniqlanadi.

### **32.Oshqozonni zondlash va yuvish texnikasi:**

**Kerakli jihozlar:**yo'g'on me'da zondi, 1 litr hajmdagi voronka, chelak, krujka, xona haroratidagi 10 – 12 litr suv (yoshga qarab), yuvindi suvlar uchun tog'ora, lotok.

**Kerakli anjomlar:** doka salfetaklar, rezina qo'lqoplar, zararsizlantiruvchi eritma,quruq xlorli ohak, sochiq, fartuk 2ta.

#### **Bajarish algoritmi :**

1. Bemor bilan kommunikativ aloqa o'rnatib, muolaja mohiyati va maqsadi tushuntiriladi va uning roziligi olinadi.
2. Muolajani o'tkazishga moneliklar yo'qligi aniqlanadi.
3. Zondning me'daga kiradigan qismi aniqlanadi: bunda qoziq tishlardan kindikkacha bo'lgan masofa olinib, o'nga bemorning kaft uzunligi qo'shiladi.
4. Bemorni stulga, orqasini stul suyanchig'iga mahkam suyantirib o'tkaziladi.
5. Bemorda tish protezlari bo'lsa, olib qo'yishi so'raladi.
6. Bemor boshini ozgina oldinga engashtiriladi.
7. Bemorning oldiga fartuk taqib, oyoqlari ostiga tog'ora qo'yiladi.
8. Muolajani bajaruvchi ham fartuk taqadi va rezina qo'lqoplarni kiyadi.
9. Bemorning o'ng tomonida turib,og'zini ochish so'raladi.
10. Zondning o'tmas tomonini suv yordamida ho'llanadi.
11. Zondni o'tmas tomonidan 10 sm uzoqlikda ushlab, uchini til ildiziga qo'yiladi.
- 12.Ehtiyotlik bilan zondni belgigacha me'daga kiritiladi. Bemor bu vaqtda

- yutish harakatlarini qilib, burni orqali chuqur- chuqur nafas oladi.
13. Voronkani bemor tizzalarigacha tushurib, me'da ichidagilari chiqariladi.
  14. Voronkaga to'ldirib suv solinadi. Bir marta yuboriladigan suvning miqdori taxminiy me'da hajmiga, ya'ni 1 litrga teng bo'lishi mumkin.
  15. Asta – sekin voronka ko'tariladi.
  16. Voronkani bemor tizzalsidan pastroqqa tushurib, ichidagi suvni tog'oraga to'kiladi.
  17. Yuvishni toza suv chiqquncha davom ettiriladi.
  18. Zondni sochiq orqali ehtiyotlik bilan chiqarib olinadi.
  19. Zond va voronkani zararsizlantiruvchi eritmaga yoki qaynatish uchun mo'ljallangan kastro'lkaga solinadi.
  20. Bemor og'zi atroflarini salfetka bilan artib,og'zini chayish uchun suv beriladi.
  21. Bemorning jismoniy va ruhiy xotirjamligi ta'minlanadi.
  22. Yuvindi suvlarning birinchi porsiyasidan 200 mlini tahlil qilish uchun bakteriologik laboratoriyaga yuboriladi(vrach ko'rsatmasiga binoan)
  23. Me'dadan chiqqan yuvindi suvlar zararsizlantiriladi (1: 5nisbatda quruq xlor ohagidan sepiladi.
  24. Parvarish jihozlari va himoya kiyimlarini almashtirib zararsizlantiriladi.

#### **Eslatma:**

- Yuvindi suvlar tarkibida qon laxtalari ko'rinsa, zondlashni to'xtatib, darhol vrach xabardor qilinadi.
- Agar me'dani zondlashni zaharlanishdan so'ng bir necha soat o'tgandagina bajarilsa, yuvishni zond orqali me'daga 25%li magniy sulfat-tuzli surgidan 60 ml yuborish bilan tugatiladi.
- Zond yutishning iloji bo'lmaganda me'da zondsiz yuviladi. Bunda 1-2 litr sodali suv ichirilib, til ildizi ta'sirlantirilib, qustiriladi.

### **33.Me'da-ichak yo'li muommolarini yechishda tozalovchi hukna o'tkazish**

**Kerakli jihozlar:** Esmarx krujkasi, shtativ, steril rektal uchlik, 1,5 - 2 litr xajmdagi 20<sup>0</sup>S li suv, suv termometri, shpatel, kleyonka va taglik, sudno, tog'ora, kleyonkali fartuk, maxsus kiyim, suyuq sovun, bir martalik qog'oz salfetka, 0,5% gipoxlorid natriy eritmasi, vazelin, bir marta qo'llaniladigan qo'lqoplar.

#### **Bajarish algoritmi:**

1. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi va roziligi olinadi
2. Qo'llar suyuq sovunda yuviladi, bir martalik qog'oz salfetkada quritiladi.
3. Muolaja maxsus unitazi bo'lgan, huqna qilish xonasida o'tkaziladi. Buning iloji bo'lmaganda bemor oldini shirma bilan to'sib, bemor uchun qulay sharoit yaratiladi.
4. Maxsus kiyim, qo'lqoplar kiyib, kleyonka fartuk taqiladi.
5. Esmarx krujkasi naychasiga uchlikni o'rnatib, xona haroratidagi 20 – 22\* 1,5- 2 litr suv solinadi.

- 6.Suvharoratini suv termometri bilan tekshiriladi.
  - 7.Esmarx krujkasini 1 metr balandlikda ko'tarib, shtativga o'rnatiladi
  - 8.Uchlikka quyuc qilib, shpatelyordamida vazelin surtiladi.
  - 9.Esmarx krujkasi naychasi vintelni ochib, havosi chiqariladi.
  - 10.Bemorning chapyon boshiga oyoqlarini chanoq-son vatiz zabug'imlaridabukib, qornigatortib yotishi so'raladi. Agar bemorning chapyon boshida yotishining iloji bo'lmasa, ho'knanibemor chalqanchayotganida o'tkaziladi.
  - 11.Bemorning dumbalaritagi akleyonkani tog'oragacha osilib turadigan qilib solinadi.
  - 12.Chapqo'lning 1 va 2 - barmoqlari bilan dumbalarni kerib, o'ng qo'l bilan uchlikni xtiyot bo'lib orqa chiqaruv teshigiga aylanma harakatlar bilan kiritiladi. Bunda uchlikni avvalkindikka 3-4 sm yo'naltirib, so'ngumurtqa pog'onasiga parallel yo'naltirib 8-10 sm gacha kiritiladi.
  - 13.Vintelni ochib, suv maromita tartib gasolinadi. Buvaqtda bemor dano'zini bo'sh qo'yib, qornibilanna fasolishi so'raladi.
  - 14.Suvni yuborib bo'lgach, vintelni yopib, uchlik chiqariladi va 0,5% li dez. eritmaga solinadi.
  - 15.Bemordan 5-10 daqiqa yotib, suvni ichaklarida ushlashi taklif qilinadi.
  - 16.Bemor unitazga yoki yotoq bemor bo'lsa sudno qo'yiladi, bo'shalib bo'lgach osti yuviladi.
  - 17.Ishlatilgan jihozlar zararsizlantiriladi.
  - 18.Qo'llar yuviladi va quritiladi.
- ASORATLARI:**
1. To'g'ri ichakning jarohatlanishi.
  2. Jihozlarni yetarli zararsizlantirmaslik ichak infeksiyasini tarqalishiga sabab bo'ladi.
- ESLATMA:**
1. Ho'qna qilganda suvning harorati qabziyat turiga bog'liq bo'ladi: atonik qabziyatda 12-20<sup>0</sup>S, spastik qabziyatda 37-42<sup>0</sup>S, qabziyatda 20<sup>0</sup>S bo'lishi kerak.
  2. Bemor spastik xarakterdagi og'riqqa shikoyat qilsa, og'riq to'xtaguncha muolajani to'xtatish kerak. Og'riq to'xtamasa shifokorga xabar qilinadi.

### **34. Sistostomani parvarishlash**

**Kerakli jihozlar:** steril lotok, nosteril lotok, suv, noxsimon balloncha, 3 ta steril pinset. Suyuq sovun, bir martalik sochiq, steril qo'lqop, antiseptik eritma, 70% etil spirti, doka tampon, salfetka, 1:5000 furatsillin eritmasi, 0,5% dez eritma.

#### **Bajarish algoritmi:**

1. Bemorga muolaja maqsadi tushuntiriladi va chalqancha yotishga yordamlashiladi.
2. Qo'llar suyuq sovun bilan yuvilib, birmartalik sochiqqa artiladi.
3. Niqobtaqiladi va steril qo'lqopkiyiladi.
4. Steril pinset yordamida bog'lam olinadi, nosteril lotok katashlanadi.

5. Sterilpinsetbilan doka tampon olib 70% etil spirtigabotiriladivajarahatatrofidagiteriparvarishlanadi.
8. Doka tampon vapinsetnosterillotokkataslanadi.
6. Ishtonchashklida qirqilgan steril salfetkanipinsetyordamidaolib sistostomagakiydiriladi.
7. Pinsetnosterillotokkataslanadi.
8. Drenaj mustahkamlanadi (drenaj siydikchiqishinormal bo'lishi uchun).
9. Bemorahvoli so'raladi.
10. Ishlatilganinstrumentlar 0,5% dez eritmagasolinadi.

### **35.O'pka- yurakreanimatsiyasini o'tkazish algoritmi.**

- Bemorga umumiy yondashish, bemorni qattiq yuzaga yotqizish.
- Nafasvauyquarteriyasida puls borliginianiqlash.
- Agar nafas va puls yo'q bo'lsa, zudlik bilan o'pka-yurak reanimatsiyasini o'tkazish.
- Nafas yo'llari o'tkazuvchanligi to'g'risida ishonch xosil qilish 2 marta sinama nafasi berish.
- Agar nafas yo'llari o'tkazuvchanligi buzilgan bo'lsa, o'tkazuvchanlikni boshni orqaga egish bilan ta'minlash.
- Umurtqa pog'onasi bo'yin qismi travmasida pastki jag'ni oldinga siljitish.
- Yurakni bilvosita massajini o'tkazishda kaft asosini xanjarsimon o'siqdan ikki barmoq yuqoriga qo'yiladi. Bunda qo'llar to'g'ri bo'lib, barmoqlar bemor tanasiga tegmasligi kerak.
- Katta kishilarga yurak bilvosita massaji va sun'iy nafas nisbati 15:2.

### **36.Defibrillyatsiya o'tkazish texnikasi**

Maqsad: talabalarga defibrillyatsiya o'tkazish texnikasini o'rgatish

Ko'rsatma: qorinchalar fibrillyatsiyasi

Kerakli anjomlar: defibrillyator, elektro'tkazuvchi gel

Bajarish bosqichlari:

- Bemorga umumiy yondashish
- Bemorni tug'ri xolatda joylashtirish
- Elektroimpuls terapiya shart -shoritlariga rioya qilish kerak: reanimatsiya qatnashchilaridan xech biri bemor krovatiga tegishi kerak emas.
- Elektroimpuls terapiya texnikasiga rioya qilish kerak.:Defibrillyatorning bir elektrodi tushning o'ng yoni , yuqori soxasi umrov ostiga, ikkinchi elektrod qo'ltik osti urta chizig'i buyicha chap surgichning lateral tomoniga o'rnatiladi.
- Kukrak soxasi yueasi elektro'tkazuvchi gel yoki tuzli eritmaga botirilsa doka bilan ishlov beriladi.

### **37.Sun'iy o'pka ventilyatsiyasini "Ambu" qopchasi yordamida o'tkazish.**

-Bemorga umumiy yondashish.

Nafas borligini aniqlash

- Nafas yo'llari o'tkazuvchanligini ta'minlash; og'iz bo'shlig'i sanatsiyasi, boshini orqaga egish, pastki jag'ni oldinga surish, xavo o'tkazgichdan foydalanish.
- Mos o'lchamdagi niqobni topib undan to'g'ri foydalanish. Ambu qopchasini ritmik siqish, ko'krak qafasini nazorat qilgan xolda.
- Es xushidarajasi gemodinamika,
- Mustakilnafas paydo bo'lishi monitoringi.

### **38.Nafas siqilganda yordam ko'rsatish algoritmi.**

- Xavf sababini aniqlash.
- Xavo kelishini ta'minlash.
- Shaxsiy muxofaza.
- Agar shikastlangan xushsiz bo'lsa, nafas yo'llarini ochish va tozalash.
- Nafas borligini aniqlash; ko'krak qafasi ekskursiyasi, o'pka auskul'tatsiyasi.
- Agar shikastlangan nafas olmasa, tezda og'izdan –og'izga, og'izdan-buro'nga, AMBU qopchasi bilan sun'iy o'pka ventilyatsiyasini o'tkazish.

### **39.O'tkir nafas yetishmovchiligida yordam ko'rsatish algoritmi.**

- Bemorga umumiy yondashish.
- O'tkir nafas yetishmovchiligi darajasini aniqlash.
- Bemorningxolatinianiqlash.
- Teriranginianiqlash.
- Puls vanafassoninianiqlash.
- O'pka auskultatsiyasini o'tkazish.
- Nafas olish soni 1 min ichida 25-28 ta bo'lganda kislorodterapiya qo'llash.
- Nafas olish soni 1 minutda 40 vaundanortgandasun'iy o'pka ventilyatsiyasi ni o'tkazish.

### **40. Kislorodoterapiya.**

- Bemorga umumiy yondashish va kislorodoterapiyaga ko'rsatmalarni aniqlash; gipoksemik, gemik, sirkulyator, to'qima gipoksiyasi.
- Kislorodoterapiya usulini aniqlash; endonazal katetrlar, niqoblar, endotraxeal yoki traxeostomik nay yordamida kislorodoterapiya o'tkazish, Kislorodoterapiya berilayotgan xavoda doimiy qonsentratsiyada, uzoq muddat va uzluksizo'tkazilishi lozim.
- Mustaqil nafas bo'lganda endonazal katetrlardan o'lchamiga muvofiq ravishda pastki burun yo'liga kiritish orqali qo'llaniladi ( katetr o'lchami burun qanotlaridan quloq yostiqlikchasiqacha bo'lgan masofa).
- Mustaqilnafasbo'lmagandaniqoblaryordamidayuqoriqonsentratsiyadagi kislorod beriladi

### **41. Yuqori nafas yo'llarida yot jism bo'lganda GEYMLIX usulini qo'llash.**

1. Bemorga umumiy yondashish.
2. Bemorga oyoqlarini yelka kengligida ochishni aytish.
3. bemorni qo'llar Bilan quchoqlab olish va qo'llarni mushtum qilish.

4. Qo'llarni qorin devori o'rta chizig'i bo'yicha kindik va xanjarsimon o'siq soxasida joylashtirish.
5. Qo'lni pastga va bosh yo'nalishi bo'yicha tepaga bosish.
6. Agarda bemor xushsiz xolatda bo'lsa, uni chalqanchasiga yotqizib, oyoqlarini ochamiz.
7. Xanjarsimon o'siq va kindik orasi soxasiga kaft asosini ikkinchi qo'l ustiga qo'yiladi.
8. 5-10 marta bosh tomonga yo'naltirilgan itaruvchi xarakatlar bajariladi.
9. Og'izbo'shlig'isanatsiyasi.

#### **42.“Og'izdan-og'izga” nafas berish metodikasi.**

1. Bemorga umumiy yondashish.
2. Bemorni qattiq yuzaga yotqizish.
3. Ko'krak qafasini tekshirish.
4. Nafas yo'llari o'tkazuvchanligini ta'minlash.
5. Boshini orqaga egish, bitta qo'lni peshonasiga ikkinchi qo'lni buyniga qo'yiladi, agar umurtqa pog'onasining bo'yin qismi jaroxatiga shubxa bo'lsa, daxani oldinga va pastki jag'ni yuqoriga chiqarish.
6. Kattavako'rsatkichbarmog'i bilan siqiladi,
7. Og'izbilanbemorning og'zi maxkam yopiladi va bemorga nafas beriladi.
8. Ko'krakqafasiekskursiyasinazoratqilinadi.

#### **43.Periferik venalarni kateterlash:**

**Ko'rsatmalar:** uncha katta bo'lmagan xajmda infuzion terapiya, uncha katta bo'lmagan muolajalar va operatsiyalar vaqtida venalar uzaniga vaqtinchali va doimiy ulanish lozim bo'lganda.

**Kateterlashningqo'laysohalari:**tirsakbuklamivenalari, kaftvenalariva to'piq ustivenalari.

**Keraklianjomlar:** 10-20 ml xajmdagi shprints, dorimoddiyoki eritmali sistema, 70° li spirt, paxta, salfetka, jgut, venoz kateter.

**Bajarishalgoritmi:**Qo'llarva punksiya soxasigaxuddivenopunksiyadagidekishlovberiladi. Bemorning tirsagi ostiga yostikcha kuyib, tirsak bug'imining maksimal yozilishiga erishiladi;

-Kateterlash taxmin kilinayotgan soxa yuqorisiga jgut qo'yiladi (teri ustidan emas);

-Bemorgakaftinibirnecha marta mushtqilib, ochib-yopish taklifkilinadi;

-Kateterlashsohasiga 70° spirt shimdirilgan paxta bnlanishlovberiladi;

-Kateternisterilo'ramdanochibolinadi;

-Kateter ignaichidabo'lganda: venaniignabilan punksiya

kilnadivaiganichikaribolib, kateter qoldiriladi. Bunda igna diametri kateterdan

ko'rakattaroq bo'lgani uchunpunksiya qilingan

joyningo'rnibirozqonabturishimumkin;

Kateter ignaustidabo'lganda: venaniignabilan punksiya kilingandan so'nguning uchini yana 3-5 mm ichkariga kateter vena ichiga kirishiuchunkiritiladi;

-Kateterni vena ichiga yanadakiritiladivaignanichikaribolinadi;

-Katetergashpripsniulabdorimoddasiniyuborish,  
o'ngasistemaniulashyokivaqtinchauningqopqog'iniberkitibqo'yishmumkin.

#### **44.Markaziy venani kateterlash:**

-Bu usul plevra va o'pkaning jaroxatlanishi kamroq bo'lgani uchun keyingi paytda kengroq qo'llanilyapti. Shu bilan birga, vena siljuvchan bo'lgani uchun uni punksiya qilish murakkabroq, uyku arteriyasini jaroxatlab qo'yish ham mumkin. Ichki bo'yinturuq vena, juft vena, diametri 12-20 mm, avval ichki uyku arteriyasi, keyin umumiy uyku arteriyasi va adashgan nerv yonida joylashadi. Bo'yinning pastki qismida umumiy uyqu arteriyasi tashqarisidan o'tadi va pastki kengayishni (piyozcha) hosil qiladi. So'ngra, o'mrov osti venasiga qo'shilib, avval venoz burchak, keyin yelka-bosh venasini hosil qiladi. Venaning pastki qismi to'sh-o'mrov-so'rg'ichsimon mushakning to'sh va o'mrov boshchalari birikish soxasi orqasida joylashadi va mushak ortiga fassiya bilan zich yopishgan bo'ladi. Vena ortida bo'yinning umurtqa oldi fassiyasi, umurtqa oldi mushaklari, bo'yin umurtqalari ko'ndalang o'simtalari, bo'yin asosida esa o'mrov osti arteriyasi va uning shoxlari, diafragmal va adashgan nerv, plevra gumbazi joylashadi. Ichki bo'yinturuq vena proeksiyasi so'rg'ich- simon o'simtani to'sh-o'mrov-surg'ichsimon mushak o'mrov oyokchasining medial qirg'og'i bilan tutashtiradigan chiziq bilan belgilanadi.

Ko'rsatmalar: uzoq muddatli intensiv infuzion-transfuzion terapiya, parenteral ovqatlantirish, MVB nazorati, periferik venalarni kateterlash imqoniyati bo'lmaganda va x.k.

Qarshi ko'rsatmalar: trombotsitopeniya, qon ivish tizimi buzilishlari, punksiya soxasidagi yallig'lanishlar, bo'yin va o'mrov soxasi jaroxatlari.

